

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI**

**MIRZAUMAROVA LOBAROYNING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INDIVIDUAL
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI SHAKLLANISHI.**

ILMIY RAHBAR:

F.SAIDOVA.

Andijon-2016

MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI SHAKLLANISHI.

Reja:

Kirish.

I.BOB Muammoning metodologik asosi.

1.1. Jahon psixologlari tadqiqotlarida individual psixologik xususiyatlar muammosining tadqiq etilishi.

1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari.

II. BOB . Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi.

2.1. Bolalarda individual xususiyatlarini shakllanishi .

2.2. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari.

III.BOB.Olingan natijalarni psixologik taxlili va umumlashtirish.

3.1.Bolalarni individual xususiyatlarini aniqlash metodlari.

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Mundarija.	
Kirish.....	4- 9
I.BOB Muammoning metodologik asosi.	
1.1. Jahon psixologlari tadqiqotlarida individual psixologik xususiyatlar muammosining tadqiq etilishi.....	10-15
1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari.....	16- 25
II. BOB . Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi.	
2.1. Bolalarda individual xususiyatlarini shakllanishi.....	26-34
2.2. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari.....	35-56
III.BOB.Olingan natijalarni psixologik taxlili va umumlashtirish.	
3.1.Bolalarni individual xususiyatlarini aniqlash metodlari.....	57-60
Xulosa va tavsiyalar.....	61-62
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63-64

KIRISH.

“Bolalik – odamzot belanchagi bola yoshini o‘rganish, kelajak psixologiyaga
zarur hisoblanadi”

G.Kompeyre

Jamiyatning ravnaqi uning o‘tib kelayotgan yosh avlodga bo‘lgan munosabati va ularga yaratayotgan imkoniyatlarga bog‘liq. Har qanday mamlakat sog‘lom va barkamol, el- yurtiga sadoqatli, iymon- e‘tiqodli farzandlari bilan faxrlanadi, ularga suyanadi. Shunday fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qaraydi, istiqboli porloq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ta‘lim jarayonini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ulug‘vor deb hisoblangan ta‘lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri –bu “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida Respublika ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohatlar yoshlarni o‘z xohishi, irodasi va intilishiga qarab, ularga chuqur bilimlar berish, o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to‘la xoli bo‘lgan yuksak ma‘naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashni ta‘minlashdir¹.

Komil insonni, ya‘ni o‘zida ruhiy boylik, ahloqiy poklik va jismoniy etuklikni to‘la mujassamlashtirgan talabalarni kelgusi faoliyatga psixologik jihatdan tarbiyalash uchun ta‘lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim. Buning uchun bolalarning psixik taraqqiyoti qonunlarini, ularning yoshlik va individual xususiyatlarini bilish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi

¹ I.Karimov, Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008. 56-b.

psixologik xususiyatlarni xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota – onalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar sarasiga kiradi. Ushbu tarbiyaviy jarayonda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini o'rganish, ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, jamiyat ravnaqi va rivojlanishi yo'lida fidoiy ruxi bilan singdirilgan xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshi psixologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Xususan har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad yaa vazifalari manaviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha insonning maktabgacha tarbiya yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusidaqanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axlokiy xarakterning asoslari yuzaga keladi D.B. Elkonin takidlaganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakillanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib olamni aks ettirish xususiyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi

Ijtimoiy xayotimizdagi o'zgarishlar mustakillik, respublikamizdagi demokratiyaning tantanasi, haqiqiy davlat tuzimiga intilish psixologiyaning konuniyatlari va ilmiy materiallarini o'rganish hamda ulardan turmushda foydalanishni talab kiladi Bola inson sifatida tashki jixatdan katta yoshli odamlarga uxshasa ham, o'ziing psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jixatdan katta yoshli odamlardan keskin fark kiladi. Ma'lumki, bola shaxsi va uning psixologik xususiyatlari kandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta'sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omilning konuniy ta'sir etishda tarkib toptiradi. Ana shu muxim konuniy tarzda ta'sir kiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shugullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik konuniyatlarining tarkib topishi kabi muxim ilmiy

malakalarni o'rganib, mamlakatimizda yangi tipdagi odamlarni tarbiyalab yetishtirish konuniyatlarini ochib beradi. Psixik rivojlanishdan biologik va ijtimoiy omillar bolani psixik rivojlanishida shaxs, inson muammosi psixologiyaning markazida turgan eng qiyin muammolardan bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi.

.....Jamiyatning yangilanishi talim-tarbiya sohasini o'zgarishini, unga yangicha munosabat va yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda Xalq ta'limi tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar birinchi navbatda shaxsni aqliy va ma'naviy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgandir.

.....Shaxsning aqliy imkoniyatlarini avvalo to'g'ri baholash va uni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltirishi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining mashhur ijobiy «portlash effekti» to'g'risida gapira turib: «Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratilsa, har qaysi inson olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dod, avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining. davlatning farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas» degan fiklari bugungikun taraqqiyotidagi yofhlar faoliyatini takomillashtirish zaruriyligini anglatadi. Talim-tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti - bolaning psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Psixologiya ta'lim-tarbiya ta'siri bilan har bir yosh davrni psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ham o'rganadi. Tarbiyachi va otalarning vazifasi bolalalarda foydali odatlarni tarbiyalash va zararlilariga barham berishdir. Bu ishni, yaxshisi ilk yoshdan, bolalardagi nerv sistemasining plastikligi hali yetarlicha ko'p bo'lgan paytdan boshlagan ma'qul. Bogcha yoshi davrda oyin faoliyati etakchi faoliyat bo'lib hisoblanadi. Bu davrda bolalalarning bilish faolligi ortadi, qizizshlari rivojlanadi. Shuning uchun bu davrni o'ziga xos psihologik jarayonlarini o'rganish maqsadga muviquddir. Bogcha yoshi

davrida bilish jarayonlarini hozirgi davr sharoitidan kelib chiqib o'rganish zamon talabiga aylanib qolmoqda. Chunki bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirish, psixologik to'siqlar ta'sirini oldini olish davr talabidir. Yuqoridagi fikrlar mavzuumizni dolzarbligini taminlaydi Yuqoridagi fikrlarga suyanan holda biz bilish jarayonlaridan biri bo'lgan hayol jarayonini bogcha yoshi davridagi xususiyatlarini o'rganish muammosini nazariy va amaliy yoritish, ilmiy tadqiq etish maqsadida "Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi" mavzusini tanladik.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi: Bogcha yoshi davrining individual psixologik hususiyatlarini turli soha vakillari o'rganganlar, lekin bola psixik rivojlanishida o'yin faoliyatini roli muammosi masalasiga kam etibor berilgan. Barcha soha kabi psixolog olimlar tomonidan ushbu muammoni o'rganish bo'yicha kator ilmiy izlanishlar olib borganlar. Zamonaviy psixologiya fanida maktabgacha tarbiya yoshi psixologiyasi muammosini o'rganishga doir ahamiyatli nazariy va amaliy tajribalar to'plangan B.G. Anan'ev VA Krutetskiy V.E. CHudnovskiy .Kazakov V.G. M.G Davletshin, V Karimova E G'oziev, Myasiщev, K. K. Platonov, , M.G Davletshin, , M. Vohidov, E. Iskandarov, O'. Otavaliyeva, Q. Daminov R Sunnatova, G Sog'inov va boshqalar.

Tadqiqot ishining maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi axamiyatini nazariy va amaliy o'rganish. Psixik taraqqiyotdagi o'zgarishlarni eksperimental tarzda o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Muammoning o'rganish yuzasidan adabiyotlar taxlili, ilmiy manbalar bilan tanishish, dastlabki ma'lumotlarni to'plash.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi o'rganish.
3. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarining psixologik xususiyatlarini o'rganish.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi va uning psixologik mexanizmlarini o'rganish .

5. Muammoning amaliy taxlillari uchun metodikalar tanlash va o'tkazish.

6. Olingan natijalarni psixologik sifat taxlilini ishlab chiqish, umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi oziga hos hususiyatlari, ijtimoiy psixologik ta'siri jarayonlarini nazariy va amaliy o'rganish

Tadqiqot ishlarimiz ob'ekti sifatida: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar shaxsi .Bazasi: Oltinko'l tumani Xalq ta'limi muaccasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashqil etish bo'yicha bo'limiga qarashli 9- maktabgacha ta'lim muassasasi turli yosh guruhlarini olindi Tadqiqot ishlarimizda 25 nafar tarbiyalanuvchi ishtirok etdi.

Tadqiqot farazi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishini o'rganish bola shaxsi rivojlantirish, undagita'fakkurni rivojlantirishda o'yinni ijodiylik, mustaqil fikrlash kabi xususiyatlarni shakllanishiga hamda, ta'lim tarbiya ishlar samaradorligi oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishining metodlari: Kuzatish metodi,eksperiment metodi, so'rov metodi, ,suhbat metodi, proektiv metodlar va . Rolli o'yinlar tashkil etadi.

Tadqiqot ishining metodologik asosi: Tadqiqotning metodologik asosi qilib Davletshin M.G., SHoumarov G`.B., G`oziev E.G`.; shaxs faolligi bilan bog`liq tadqiqotlari; Klimov E.A., Merlin B.S., Nebilitsin V.D., Peysaxov N.M., Rusalov V.M., Slavina L.S.,Strelyau A., Teplov B.M. larning shaxsga individual yondashuvning ta'minlanishi bilan bog`liq tadqiqotlari; Breinshteyn M.S., Dubrovina I.V.,Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich YU.M., Sierd YU.L larning ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag`ishlangan tadqiqotlari hamda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning yoshlarni tarbiyalash haqidagi fikrlari tadqiqotning metodologik asosi qilib olindi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligini: Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi bo'yicha bir qancha ilmiy qarashlar qilingan, lekin bizning mintaqamizda ushbu muammo eterli ilmiy asosda to'la o'rganilgani yo'q. Bu esa ilmiy ishning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyat: Maktabgacha ta'lim muassasalari va tarbiyachilar uchun ilmiy uslubiy manba'alar bilan ta'minkanadi, tafakkur jarayoni to'g'risidagi bilimlar boyitiladi.

Ilmiy ishining amaliy ahamiyati: Ilmiy ishdan kelib chiqqan xulosa va tavsiyalarni bog'cha yoshidagi bolalarning ota onalari, va bog'cha yoshidagi bolalar tarbiyachilari o'z mehnat faoliyatida qo'llashi mumkin.

Ilmiy ishining tuzilishi: Kirish (mavzuning dolzarbligi), 3 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I.BOB MUAMMONING METODOLOGIK ASOSI.

1.1. Jahon psixologlari tadqiqotlarida individual psixologik xususiyatlar muammosining tadqiq etilishi.

Oʻtgan ajdodlarimiz psixologiyaning muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yoʻnalishda, maʼlum konsepsiya asosida oʻrganmagan boʻlsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon boʻlishi, rivojlanishi va oʻzgarishlari toʻgʻrisida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Muammoning oʻrganilish jarayoni dastlab sharq allomalar asarlarida uchraydi. Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi ahloqiy-falsafiy mushohadalari «Ideal shahar aholisining fikrlari», «Masalalar mohiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jism va aksidensiyalarnint shakllariga qarab boʻlinishi», «Sharhlardan», «Hikmat mahnolari», «Aql mahnolari toʻgʻrisida» kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayhon Beruniy oʻzining «Oʻtmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir xilma-xil maʼlumotlarni keltiradi. Shu jumladan, olim kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi toʻgʻrisida bildirgan mulohazalar diqqatga sazovordir. Beruniy odam uzoq vaqt yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bogʻlaydi. Bu jihatdan uning «Hindiston», «Mineralogiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib oʻz asarida eng komil, jamiyatning oʻsha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan boʻlsa, shu asosda oʻz prinsiplarini bayon etadi:

A.Jomiyning «Bahoriston», Xiradiomai Iskanlariy», «Tuhfatul ahror», «Silsilatuz zahob» va boshqa asarlarida ilm-mahrifat, tahlim-tarbiya, kasb-hunar oʻrganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.

Yuqoridagilardan tashqari, Bobur, Farobiy, Majlisiy, Mashgʻab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muhimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Xamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, ahloq-odob, fehl-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi.

Rus sotsial-demokratlari A.N.Gersen, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov, V.G.Belinskiylarning inson kamoloti to'g'risidagi qarashlari psixologiyani jonlantirishda muhim rol o'ynadi.

Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda K.D.Ushinskiy, N.F.Kapterev, I.A.Sikorskiy, A.P.Nechaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti», N.F.Kapterevning «Pedagogik psixologiya», I.A.Sikorskiyning «Bola ruhi», A.P.Nechaevning «Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab tahlimiga munosabati», A.F.Lazurskiyning «Maktab o'quvchisining tavsifi», P.F.Lesgaftning «Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati», J.Yelnitskiyning qizlar tavsifi asarlari psixologik ilmiy tadqiqotni jadallashtirishga xizmat qildi.

Rossiyada G.I.Rossolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» laboratoriyasi ishga tushdi. «Tarbiya xabarlari», «Rus maktabi», «Erkin tarbiya», «Kundaliklar» kabi jurnallar chop etila boshlandi. Ana shuning zamirida «Oila tarbiyasi qomusi» dunyo yuzini ko'rdi. Bularning barchasi shaxs psixologiyasi va differensial psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi.

I.M.Sechenov, I.P.Pavlov g'oyalariga asoslangan P.O.Efrusi, N.Ribakov, K.N. Kornilov, P.P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy va boshqa olimlar yosh psixologiyasi bo'yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar va yangidan-yangi qonuniyatlarni yaratdilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda yosh psixologiyasi va pedagogik Psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qator asarlar paydo bo'ldi.

K.Byuler xonim(1879-1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari(instinkt, dressura,

intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o‘rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g‘oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan, amerikalik psixolog S.Xoll(1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko‘chiradi. Uning fikricha, irsiyat filogenezni ontogenezda takrorlaydi, xolos. Shvsitsariyalik psixolog E.Klapared(1873-1940) S.Xolldan farqli o‘laroq, ontogenez va filogenezda psixik funksiyaning o‘shini o‘rganish uchun quyidagi holatlarga ehtibor beradi:

- a) organizm ehtiyojini qondirish;
- b) reflektor harakat to‘siqda duch kelsa, ongli harakat vujudga keladi;
- v) unga nisbatan ehtiyoj sezsa, u holda ma’lum faoliyat turiga yo‘naltiriladi.

E.Klapared «Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika» kitobida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metohologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, ularda dastlabki umumlashtirishning sinkretligi(aralash holatdaligi), o‘xshashlik va farqlanishning bola ongida aks etishi to‘g‘risida mulohaza yuritadi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgsim(1858-1917) o‘shish-kishilarning his-tuyg‘usini o‘zlashtirish ekanini, shu boisdan idrok qilingan tashqi fikrlar va emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, anhana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutishini uqtiradi. E.Dyurkgsimning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘iladi.

Fransuz psixologi P.Jane(1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug‘ullandi.

Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi nnsinning o‘shini belgilaydi, u aloqa deb, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi,

shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi. P.Jane o‘z tadqiqotlarida psixikaning to‘rt darajasi:

- a) motor reaksiyasiyaing o‘shishi;
 - b) perseptiv harakatning o‘shishi;
 - v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o‘shishi(o‘zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish);
 - g) intellektual sodda xatti-harakatning o‘shishi(nutq va tafakkurning rivojlanishi)
- mavjud ekanliginn asoslagan.

Shvsitsariyalik psixolog J.Piaje(1896-1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o‘rganishni tavsiya qiladi: Bola tashqi muhit ma’lumotlarni qayta ishlash.

Tafakkur:

- a) ijtimoiy davrgacha;
- b) ijtimoiy davr.

Intellekt:

- a) sensomotor - 2 yoshgacha;
- b) operatsional davrgacha - 2-7 (8);
- v) yaqqol operatsiya davri - 7 (8)-11 (12) yoshgacha;
- g) rasman (formal) operatsiya davri- 11 (12)-15 yoshgacha.

G‘arbiy Evropa va AQSHda shaxsning individual xususiyatlari va psixik jarayonlarning shakllanishiga yo‘nalgan ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, bolalar psixologiyasining rivojlanishida SHveysariya psixologi J.Piajening roli kattadir. U bola aqliy tomondan rivojlanishi, ko‘nikma va malakalarni ta’lim jarayonidagi roli masalasini amerikalik psixolog Dj.Bruner, Anno Frakl bolalarda tafakkurining rivojlanishi, Fransiyada A.Vallon, R.Zazzo, Angliyada B.Saymon, O.Konnor va boshqalar bolalarning psixik taraqqiyotini ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qildilar.

Hozirgi kunda bizda ham ko‘pchilik olimlar bolaning psixik taraqqiyoti muammolarini, unga ta’sir etuvchi faktorlarni, ta’lim jarayonini faollashtirish, qobiliyatlarini shakllantirish muammolarini nazariy jihatdan ishlab chiqdilar.

Jumladan, P.I.Ivanov psixologiya fanining umumiy masalalari, ta'limning psixologik asoslari, turli yosh davrlarda psixik jarayon va xususiyatlarning rivojlanishi muammolarini, M.G.Davletshin o'quvchilarda texnik qiziqishlar, qobiliyatlarini shakllanishi, yoshlar mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish, kadrlar tayyorlash samaradorligi oshirish yosh va pedagogik psixologiya, qobiliyat psixologiyasi kabi masalalarni keng yoritib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. E.G'oziev ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi, ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, komil inson tarbiyasining psixologik muammolarini, B.R. Qodirov yoshlarning individual xususiyatlari, ularning faoliyatga yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarning shakllanishi, iqtidorli o'quvchilarning xususiyatlarini, kasb tanlash va boshqa katta muammoni ilmiy jihatdan asoslab berdilar. O'zbekistonlik psixologlar ham psixologiyaning rivojlanishida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. P.I.Ivanov psixologiyaning umumiy masalalari, psixik hodisalarning bolalarda rivojlanishi, ta'lim psixologiyasi sohasida ("Umumiy psixologiya", "Ta'limning psixologik asoslari"), M.G. Davletshin "Qobiliyatlarni rivojlanishi", "Texnik qiziqishlar", "Qiziqish va ta'lim", kabi ko'plab ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, M.Vohidov "Bolalar psixologiyasi", E.G'oziev "Tafakkur psixologiyasi", "Xotira psixologiyasi", "SHaxs psixologiyasi", B.Qodirov "Qobiliyat va iqtidor", G'.SHoumarov "Oila psixologiyasi" va boshqa shu kabi ko'plab darslik va qo'llanmalar yaratdilar. AQShlik psixolog Dj.Bruner(1915) shaxsning tarkib topishi bilan tahlim o'rtasida ikki yoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi. Shu tariqa yosh psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari; rus va chet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini xaoi xanuz saqlab kelmoqda. Bu o'rinda bolalar psixik taraqqiyoti borasida olibborilgan tadvivotlar alohida ahamiyatga egadir.

O'zbek psixolog olimlardan E.G'oziev, V.Karimova, G'.Shoumarov va boshka psixologlar bola psixik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'rni va ayniqsa oilaviy munosabatlarning ta'siri natijasida bolaning yoshiga xos fazilatlarning, qobiliyatlarning rivojlanishi hakidagi ilmiy g'oyalari bugungi kunda fan psixologiyasi mummolarini o'rganishda katta rol o'ynamoqda.

1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixik rivojlanish xususiyatlari.

Psixik rivojlanishdan biologik va ijtimoiy omillar bolani psixik rivojlanishida shaxs, inson muammosi psixologiyaning markazida turgan eng qiyin muammolardan bo'lib hisoblanadi. Ongli inson tarbiyasini psixik rivojlantirish jarayon qonuniyatlarni bilmasdan tarbiyalash aqlga sig'maydi. Inson shaxsi qaysi jarayonga kattalar tomonidan maqsadga yo'naltiradi. Ushbu jarayonni boshqarishdagi imkoniyatlar qanday? Bu savollarga javob izlashda odam nima bilan tug'iladi, hayot jarayoni va faoliyatida nimalarga erishadi. Ta'lim-tarbiya tizimini oydinlashtirish orqali amalga oshirish zarur. Dialetik, materialistik, biologik va ijtimoiy munosabatlarni o'zaro insondagi psixologik ilmda dialetik, materialistik o'rganishga ruxsat beriladi. Bunda inson «barcha jamiyat munosabatlarida mavjud».

Inson biologik mavjudot, shuning uchun uning psixik rivojlanishiga ta'sir qilishda ikkita ajoyib omil ko'rsatiladi

1. Biologik –tabiat.
2. Jamiyat tomonidan tashkillashtirilgan ta'lim va tarbiya.

Ushbu omillarning o'zaro munosabati turli nazariyalar bilan ko'rib chiqilgan.

Biologizator insondagi tabiatan berilgan hayotiy jarayonlarni hal qiluvchi omil sifatida uning rivojlanishini belgilab berishini tan olishadi. Bu yo'nalishda odam tabiatdagi biologik ahamiyatini baholash, turli nazariyalarga asoslanib ochib kelinadi. Tashqi biologik ta'sir omillari sotsialogizatorlar nuqtai-nazarida ahamiyatsizdir.

Mazkur ikkita yondashuv metafizikadir. Ular faqat bitta omilni tan olishib uni o'zaro munosabat va bog'liqlikni ko'ra olmagan. Psixologik yo'l psixika rivojlanishidagi dialetik muammolarni hal qilishda insonni biologik mavjudot sifatida qarab, ikki omilning yaxlit faoliyati psixikani tushunishdagi materialistik jihatdan miyaning ob'ektiv aksi sub'ektivda deb qaralgan. Muammoni yechishda dialetik materialistik yondashuv inson tabiiy ma'lumotlariga psixik rivojlanishni biologik-anatomik xususiyatlarining bog'liqligini asosiy psixik faoliyati sifatida bosh miyaning oliy nerv faoliyati vujudga keladi va bolani o'rab turgan tashqi

ta'sirlar hayot tarzi jamiyat tarixi psixik hayotni tarkibiga kirib inson shaxsini shakllantiradi.

3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakillanishiga ko'ra bu davrni uch qismga ajratish mumkin: Birinchi davr—bu 3–4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z–o'zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi davr—bu 4–5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o'z –o'zini boshqarish. Uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari katoiylisha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo'lib ularning ta'lim –tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o'tadi va mustaxkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga xarakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga xarakat xususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy xayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu – bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egalash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv asosan bolalarning syujetli – rolli uyinlarda asosiy rolni egallashga boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rqmasligida nima bo'lganida ham yutishga xarakat qilishlarida ko'rinadi. Maktabgacha yosh davri

bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda maishiy ahloq norma va qoidalarni, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish normalarini egalaydilar. Bunday normallarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirish uchun syujetli –roli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir ahloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqatli, mehribon bo'lish xususiyatidir. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti –xarakatlari sababini tushuntirib bera oladilar .

3–3,5 yosh oralig'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan ularning o'zlariga beradigan baholari asosida bo'ladi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4 –5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z –o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan boshlab rivojlanib avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga xarakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?», «Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?» singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa shu singari qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishiga xarakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan –iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida

ularning ota –onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – xarakatlarni, tilni , odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘shib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab xarakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari xosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha insonning bog‘cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va ahloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so‘zlardan bog‘cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo‘lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola ahloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning xarakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi

bilganlarini mustaxkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir

Bog'cha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosobatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va xaddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosobatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosobatlarga intila boshladilar. Ular endi kuni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan extiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana bir uning xar narsani yangilik sifatida ko'rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik xodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustaxkamlashishga yordam beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutk, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o'yinchoqlar berish lozim(bolalarning qo'g'irchoqlari uchun har hil rangli qiyqimlar berish, har hil rangli halqalar, qutichalar va shuning singari narsalar juda yaxshi bo'ladi).

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga(rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur taxlil qilmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni taxlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

1. suratning mazmunini(syujetini) to'g'ri idrok qilishga,
2. suratning umumiy kurinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga,
3. tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benixoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. Uyin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil xarakterlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, xayron qolish va natijada turli savollarning tugʻilishi tufayli paydo boʻladi. Juda koʻp otalar va ayrim tarbiyachilar ham bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «kup maxmadona boʻlma», «sen bunday gaplarni qaerdan oʻrganding», deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola oʻksinib, oʻz bilganicha tushunishga xarakat qiladi. Ammo ayrim passiv va tortinchoq bolalar xech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashgʻulotlar va sayoxatlarda kattalarning uzlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlarlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib koʻrishga intiladilar.

Bogʻcha yoshidagi bolalar nutqi va uning oʻsishi Agar 2 yashar bolaning soʻz zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha boʻlsa, 3 yashar bolaning soʻz zapasi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning soʻz zapasi 4000 taga yetadi. Demak, bogʻcha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarning nutqini oʻsishi oilaning madaniy saviyasiga bogʻliq

Kattalar bolalar nutqini oʻstirish bilan shugʻullanar ekanlar, bogʻcha yoshidagi bolalar baʼzi hollarda oʻz nutq sifatlarini toʻla idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali toʻla takomillashmagan boʻladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri bola bilan toʻla va toʻgʻri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Bogʻcha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuygʻular gʻoyat kuchli va juda tez namoyon boʻladi. Bogʻcha yoshidagi bolalarning xis-tuygʻulari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bogʻliqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik(yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuygʻularini koʻzgaydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch xissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o'rtasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshirikni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik xissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy xissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va kollektivizm xislari ham yuzaga kela boshlaydi.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik xissiyotlar ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik xislarning namoyon bo'lishini ular biron chiroyli, yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz xis-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xis-tuyg'ulari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslgi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslgi sababli bolada noxushlik(yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini ko'zlaydi¹.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch xissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o'rtasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida hafalik, ta'bi xiralik xissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy xissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va kollektivizm xislari ham yuzaga kela boshlaydi¹.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik xissiyotlar ham ancha tez o'sadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik xislarning namoyon bo'lishini ular biron chiroyli, yangi kiyim kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy xayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi.

¹ Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006, 89-bet.

Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish va ularni erkin xarakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstruktorlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqotlar kurtaklarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv xarakatlarda, diqqatda ichki va tashqi xarakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi tuzilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo'ladi. Shuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar ahloqiy norma va qoidalar egalaniadi. Bu norma va qoidalar bola ahloqini boshqaradi.

Bola va atrofidagi kishilar orasida xilma xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti balki ahloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojining cho'qqisi bo'lib, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglash xissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

Bolaning psixik rivojlanishida ularda paydo bo'ladigan ehtiyojlar va kizikishlar katta ahamiyatga ega . Ular bolani u yoki bu xarakata undovchi omil xisoblanadi, bola kizikkan narsasi bilan uzok vakt shugullana oladi. Bu esa uning diqqati, irodasini rivojlantirishga yordam beradi. Bog'chada to'g'ri yulga kuyilgan

tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda kizikishini tarkib toptiradi.¹ Bog'cha xayotining ko'p kirrali va sermazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga va chukurlashishiga yordam beradi, bu esa uz navbatida idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, kabi jarayonlarni rivojlantiradi. Bog'chadagi tartib intizom va ta'limiy mashulotlar yuksak ijtimoiy, intellektual, axlokiy va gigienik ehtiyojlarning, yuzaga oshishiga sharoit yaratadi.

Emotsional-irodaviy xislatlarning shakllanishida o'yin, mehnat faoliyatlarining, ta'limiy mashg'ulotlarning ta'siri katta, Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yinda bemor singari yiglaydi, vrach sifatida unga raxmi keladi, bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi gavdalanadi. Bolaning psixik rivojlanish muammosi zamonaviy psixologiyaning diqqat markazida turadi. Psixologlar fikricha, bolaning psixik xususiyatlarini shakllanishini ijtimoiy omil belgilab beradi deb P.Ya. Galperin, D.K.Elkonin, V.V.Davidov, A.V.Zankov, N.A.Menchenskaya va boshqa psixologlar taklif qilishgan. Demak bolalarda orientir faoliyat va bola psixikasining rivojlanishidagi har bir bosqichidagi faoliyat ko'rinishlarini shakllanishiga asosiy diqqat qaratilgan. D.K.Elkonin va V.V.Davidov" ta'lim o'zining bosh rolini aqliy rivojlanishda bolaning bilimlarini o'zlashtirish orqali hosil qiladi", deb ta'kidlashgan. Shuning uchun ular bolalarda umumlashgan usullar va anglash usullarini shakllantirib, ular orqali bola o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi, deb hisoblashgan. A.V.Zankov rivojlangan ta'limga muvaffaqiyatli sharoitlarini mehnatning yuqori darajasi materialini tez tempda o'tish bolaga ta'lim jarayonini anglashiga ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlagan. A.V.Zaporojets, V.V.Davidov, D.K.Elkoninlarning o'tkazgan tadqiqotlarida maktabgacha va kichik maktab o'quvchilarining imkoniyatlari keng ochib berilgan. Bu maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim dasturi va dastur tartibi psixologik kriteriyalari orqali boyitilib, tarbiyaning ta'limiy ishida maktabning boshlang'ich sinflarida yuqori talablarni qo'yilishiga olib keldi.

¹ Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006, 95-bet

II. BOB . Maktabgacha yoshdagi bolalarda individual psixologik xususiyatlarni shakllanishi.

2.1. Bolalarda individual xususiyatlarini shakllanishi .

Har bir bola o`ziga xos takrorlanmas individuallikka ega va shu bilan boshqa bolalardan farqlanib turadi. Bola shaxsi va ruhiyatining o`ziga xosligi uning temperamenti, xarakteri, qobiliyatlarini bilish jarayonlarida namoyon bo`ladi. Ota-onalar bolalarning individual xususiyatlaridagi tafovutlar haqidagi ma`lumotlarga ega bo`lishlari shart¹. Chunki bir bolani tarbiyalashda samarali hisoblangan ta`sir etish usuli boshqa bolaga to`g`ri kelmasligi mumkin. Bu holat ko`pchilik ota-onalarga yaxshi tanish. Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning individual – psixologik xususiyatlarini aniqlashga mo`ljallangan metodikalar mavjud.

Biroq ko`pchilik ota-onalar o`z farzandlarining individual – psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishmaydi.

Biz quyida individualligini yaqqol namoyon qiladigan jihatlaridan biri –uning temperament xususiyatlarini aniqlash haqida to`xtalib o`tamiz ,aynan temperament mavzusini tanlashimizni o`ziga xos sabablari bor .

Birinchiidan, bola temperament xususiyatlarini kuzatish orqali osongina aniqlash mumkin, temperament xislatlari bolalar xulqi va faoliyatida shu bolaning dinamik xususiyatlari jadalligi, tezkorligi, faoliyat tempi, psixik jarayonlari va holatlari ritmi ni aniqlab beradi.

Ikkinchiidan, temperament bolaning fundamental tabiy xarakteristikasi hisoblanib, asab tizimi xususiyatlarining tug`maligi bilan bog`liqdir. Shuning uchun ham u tashqi muhit va tarbiya ta`sirida unchalik o`zgarmasligi bilan xarakterlanib turadi.

Ucunchidan, temperament bolaning fundamental tabiy xarakteristikasi hisoblanib, asab tizimi xususiyatlarining tug`maligi bilan bog`liqdir. Shuning uchun ham u tashqi muhit va tarbiya ta`sirida unchalik o`zgarmasligi bilan xarakterlanib turadi.

¹ E.G`oziev, K.Daminov. Bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1992, 27-bet.

Bolaga nisbatan olib boriladigan tarbiyaviy va pedagogik ta'sir ko'rsatish , asosan shu ikki omilga yonaltirilgan bo'ladi. Kattalar bola individualligini namoyon qiluvchi bu ikki asosiy omilni chetlab o'tish mumkin emas. Aks holda, ularning bolaga nisbatan qo'llaydigan tarbiya usullari kutilgan natijalarni bermaydi.

Bolalar o'z temperament xususiyatlariga qarab bir- biridan ajralib turadilar: xushchaqchaq, sergap, quvnoq, sharoitlarga tez moslashuvchan bolalar- sangvinik temperamentiga mansub bo'ladilar. Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan , ta'sircha kamgap, sust bolalar- melanxolik temperamentga kiradilar. Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar- flegmatiklardir. Jahldor, betoqat, serzarda harakatchan bolalar –xolerik hisoblanadilar.

Sangvinik bola harakatlarining tezligi va jonliligi, imo- ishoralarning xilma-xilligi va boyligi, nutq maromining tezligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolaning yuqori psixik faolligi uning aqlilligi, topqirligi, taassurotlarning tez-tez o'zgarib turishi, atrofdagi po'yy berayotgan voqealarga xozirjavobligida ham namoyon bo'ladi. Uning hissiyotlari tez yuzaga keladi va o'zgaruvchan bo'ladi. Sangvinik bola uchun yig'lab turgan quvnoq holatga va aksincha, quvnoq holatdan yig'i holatiga osongina o'tish xarakterlidir. Bunday bola ko'pincha yaxshi kayfiyatda turadi, chunki muvaffaqiyatsizlik, noxushliklarni boshqalarga nisbatan oson va tez o'tkazadi. U zerikarli holatga toqat qila olmaydi, mashg'ulotlarda toliqmaydigan, yetarlicha chidamli faol vas ho`x bo'ladi.

Bunday bola odatda, o'qishga oson o'rganadi: ma'lumotlarni tezda ilg'ab oladi, mehnatsevar, va tashabbuskor bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, muloqat va shaxslararo munosabat uchun qulay bo'lgan bunday temperament tipining lekini ham bor, yani sangvinik bola qilayotgan ishidan osongina chalg'iydigan parishonxotir, biroz yengil tabiatroq bo'ladi. Shuning uchun noto'g'ri tarbiyalash natijasida sangvinik bola xatti-harakatlarida pala- partish ba'zi salbiy jihatlar tez yuzaga kelishi mumkin.

Sangvinikka xos bo'lgan qo'zgalish va tormozlanish jarayonlarining muvozanatlashganligi bola hayotining aniq maromini belgilab beradi. Bunday bola kechqurn oson uyquga ketadi va erta uyg'onadi. Ota-onalar bunday bolalar uchun kun tartibiga amal qilishiga va uning kundalik hayot tarzining bir maromda bo'lishiga

alohida e`tabor berishlari lozim. Sangvinik bolaning o`yin va mashg`ulotlarini, umuman hayot tarzini tashkil qilishda shuni unutmash kerakki, bunday bolalar uchu biron bir mashg`ulot bilan band bo`lishi qiyin. bunday bolalarning qiziqish doirasi juda keng bo`ladi: u turli xil tasviriy san`at asarlarini, chet el multfilmlarini tomosha qilishni yoqtiradi, ko`pincha har-xil savollar berib turadi.

Sangvinik bola muloqotga oson kirishuvchan bo`lib, muloqot doirasi ham juda keng bo`ladi. Shuning uchun do`stlari ham ko`p va ko`pincha guruhda yetakchi bo`ladi. Biroq uning kimgadir yoki nimagadir bog`lanib qolishi vaqtincha, yani o`rgangan kishi yoki narsasidan ajralish qiyinchilik tug`dirmaydi va atrofdagilarga nisbatan ham muloqot darajasi yuzaki bo`ladi. Bunday bola o`zining zakovati va tashabbuskorligi bilan atrofdagi bolalarni qiziqarli o`yinlarga jalb qilishi mumkin. Lekin o`rtoqlarini tushunish, ularni kechinmalarini xis qilish kabi xislatlar unga begona bo`lib, atrofdagilarning g`amiga sherik bo`lish, achinish va hamdardligi ham yuzaki faqat so`zdagina namoyon bo`ladi.

Sangvinik bolalar o`rtasida ham muammoli bolalar uchraydiva ular xarakterining yengilligi, xavotirlanish va yomon kayfiyatda uzoq vaqt bo`la olmasligi bilan farqlanadi. Ularga mijg`ovlik yot, emotsional turg`un va o`ziga ishongan bo`ladi. Biroq sangvinik bola kattalar tomonidan alohida psixologik yondashuvni talab qiladilar.

Kattalar avvalambor , ularning faoliyatini tashkil etishga e`tabor berishlari kerak. Sangvinik bolaga biron-bir o`yinni uzoqroq o`ynashi yoki biron bir yumush bilan uzoqroq band bo`lishi uchun yordam berish kerak. Uning diqqatini tashkil qilish yoki biron- bir ishni bajarishning turli usullarini o`rganish uchun kattalar bolani qandaydir mashg`ulot bilan shug`ullantirishda avvalo ozroq , asta-sekin ko`proq vaqt jalb qilib borishi kerak. Bolaning kattalar bilan munosabati qanchalik yaxshi bo`lsa, bu ish shunchalik oson kecchadi. Bunday bolalar bilan olib boriladigan mashg`ulotlarni tashkil qilishda faollikni xordiq bilan almashtirib boorish lozim, shundagina faoliyat bilan bog`liqlik uzoqroq davom etadi.oyin va mashg`ulot jarayonida kichkina “Sangvinik” hayolotini faollashtirishi kerak . Bola fantaziyasi qanchalik kuchli bo`lsa , u ma`lum bir ishga shunchalik uzoq vaqt diqqatini jamlay oladi. Bunday bolalarni bir xil mashg`ulotlar bilan toliqtirishdan foyda yo`q. u bunday ishlarga toqat qila olmaydi.agar

ish unga yoqadigan va qiziqarli bo'lsagina ,” Sangvinik ” juda faol ishlashi mumkin. agar bola mashg'ulotdan qoniqmasa, uning faolligi lanjlik va befarqlik bilan almashinishi mumkin. Sangvinik bolalar bir mashg'ulotdan boshqasiga osongina o'tadilar, lekin ularning biron-birini ham yetarlicha chidam bilan uzoq vaqt o'ynay olmaydilar.

Ular o'z xotolarini tuzatishni ,chizgan rasmlarni yaxshilashni , o'yin tugaganidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishni yoqtirishmaydi. Shuning uchun biror ishni bajarishni o'yinga aylantirish o'yintarzida bajarish orqali “sangvinik” ning qo'llab turish mumkin. Shundagina kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotida muammoli vaziyatlar yuzaga kelmasligi mumkin.

Sangvinik bola ko'ngilsiz nohush kechinmalarga unchalik ahamiyat bermaydi. O'z tashvishlarini tez unitadi, arzimagan narsalarga xafa bo'lavermaydi, har qanday ishni albatta muvaffaqiyatga erishish umidida boshlaydi, har bir narsaning yaxshi jihatlarini ko'radi. Kattalarning bildirgan etirozlarini tez unitadi. Sangvinik bolaning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan holda , u bilan kelishish va faolligini boshqarish qiyin emas.

Flegmatik bola muvozanatli ehtiyotkor , o'zini tuta oladigan xotirjam bo'ladi. Uning xissiy holatlari deyarli o'zgarmaydi. U qat'iy va o'z xohishlariga erishish yo'lida turg'un. Har qanday hayotiy stresslarga chidamli, kam qo'zg'aluvchan, sezgirliги unchalik yuqori harakatlari sust. Uning biron-bir ishga kirishib ketishi qiyin, lekin boshlab olsa, undan chalg' olmaydi. Flegmatik bola bir xil o'yin va mashg'ulotlarni ma'qul koradi. U ozoda va tartib-intizomli. Kopincha yolg'iz o'ynaydi, o'z o'yinchoqlarini joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadi. Konservativ, jumladan, atrofidagi tartib-intizom, taomlar, “o'zining” qoshigi, piolasi, idishi, o'yinchoqlariga munosabati turg'un. Bunday bola kechikib bolsa-da, xanma narsaga o'rganadi. Ovqatlanayotganida shoshilmay, sekin, maroq bilan, mazza qilib yeydi. Ko'pincha vazni me'yordan ortiq boladi.

Flegmatik bola o'yin va mashg'ulotlarda an'ana va qoidalarga amal qilishni ma'qul koradi. O'zi o'rganib qolgan qoida va tartiblarning o'zgartirilishi yoki

buzilishi uning jahlini chiqaradi va hatto g'azablantiradi ham. Biron-bir yoqimli musiqani xirgoya qilib yoki onglab uzoq vaqt yolg'iz otirishi mumkin. U o'ziga topshirilgan vazifalarni bajonidil, vaqtida ozooda va tartib bilan bajaradi. Topshirilgan ishni yoshiga mos darajada aniq va ishonchli amalga oshiradi.

O'quv mashg'ulotlari paytida flegmatik bolaga bir narsani bir necha marta takrorlash lozim, chunki u tashqaridan kelayotgan ma'lumotlarni juda sekinlikbilan o'zlashtiradi. U bir xil voqea, hodisa, ertak, she'rlarni qayta-qayta eshitishni yoqtiradi. Berilgan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganligini tekshirayotganda uni shoshiltirmaslik kerak. U ma'lumotlarni sekin, lekin mustahkam o'zlashtiradi, uning xotirasi juda ishuonchli. Nutq tempi sekin. Bir mashg'ulotdan boshqasiga o'tish undan juda kop vaqt talab qiladi.

Flegmatik bola bilm, malakalarini aksariyat hollarda qayta-qayta mashq qilish va ishlash orqali o'zlashtiradi va ularni takomillashtirishga hamda faoliyatining mahsuldorligini oshirishga kop vaqt ajrata oladi.

Flegmatik bola muloqotga unchalik kirishuvchan bolmaydi. U bitta doimiy dost yoki o'ziga yoqgan katta yoshli odami bilan birga bolishini ma'qul koradi. Goho o'rtoqlarisiz, bir o'zi vaqt o'tkizishi mumkin va yolg'iz o'ynashni yoqtiradi. Tashqi taassotlarga unchalik ahamiyat bermaydi, o'zining fikr-o'ylari, kechinmalari olamida yashaydi.

Bunday bolalar notanish odamlar bilan muloqotga qiyin kirishadilar. Kattalar o'zinhing ortiqcha mehribonchiligi bilan ularning g'ashiga tegmasliklari va o'zlarini biroz e'tiborsiz tutishlari lozim. Chunki flegmatik bolalarning o'zlari ham e'tiborsizroq bo'ladilar va ortiqcha mehribonchilik ularning g'ashini keltirmaydi. Biroq kimnidir yoqtirib, yaxshi korib qolishsa, vafodor, sadoqli boladilar.

Garchi boshqa bolalarga nisbatan hissiy turg'un va xotirjam bolsalarda, flegmatiklar orasida ham ba'zan muammoli bolalar uchrab turadi. Flegmatik bolalar nimdandir ykoi kimdandi qattiq xafa bolib, ularning kongliga og'ir botgan bolsa, ular bundan juda ta'sirlanadilar va uzoq vaqt eslab yuradilar.

Kechinmalarning chuqurligi va uzoq vaqt davom etishi bolada o'ziga va atrofidagilarga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun, kattalar flegmatik bolaning " nozik tomonlarini" yaxshi bilishlari va ularni xafa qiladigan, ular g'azablanishi mumkin bolgan xafagarchilik manbalarini imkon qadar qo'zg'atmaslikka harakat qilishlari lozim boladi.

Flegmetik temperamentli bolaning ruhiy muvozanati osonlikcha buzilmaydi, lekin bu muvozanat buzulsa, unutmashlik kerakki, u bunday holatda o'ta qasoskor bolib qoladi. Bunday bolani tarbiyalashda oqilonalik zarur: uni haddan tashqari erta uyquga yotqizish, shuningdek, allamahalgacha uxlamasligiga yo'l qo'yib berish ham kerak emas, lekin har kuni bir xil vaqtda uyg'otish kerak. Uni erklatish shart emas, jumladan, u sovuq suvda yuvinishi yoki juda issiq kiyinmasligi mumkun.

Uning birjoyda uzoq vaqt o'tirishiga. Qiyin mashg'ulot bilan ko'p muddat shug'ullanishiga yoki bekor o'tirishiga yo'l qo'ymaslik kerak. O'yin va mashg'ulotlarda "flegmatik" ni o'z holiga tashlab qo'ymasdan, u bilan birga o'ynash, gaplashish, uni "yondirish" ga harakat qilish, qiziqtirish, o'yin tgemoini oshirish, agar u o'ylanib qolgudek bolsa, uni chalg'itish lozim. U bilan mashg'ulotlarni tashkil qilishda flegmatikning sustkashligi va tashabbuskor emasligini hisobga olish zarur. Uning xayolini doimo maxsus o'yinlar va mashqlar bilan jonlantirib turish, uning fikrlarini uyg'otish psixik faolligini muntazam shug'ullanish orqali "ishga solib turish" kerak

Flegmatik bolalar bilan psixologik ish olib boorish lozim. Kopchilik ota-onalar ham, bog'chada tarbiyachi va maktabda o'qituvchilar ham bunday bolalarga deyarli e'tibor bermaydilar. Chunki bunday bolalar "xira" likni bilmaydilar va alohida e'tibor talab qilmaydilar, ko'pincha yolg'iz bo'lishni yoqtiradilar. Agar flegmatiklar bilan kichkinaligidanoq shug'ullanimasa, ular hama narsani boshqa tengdoshlariga qaraganda kechki broq o'rganadilar. Bunday bolalar bilan muloqotda bo'lib, ularning qiziquvchanligini uyg'otish, ularni hayotning turli-tuman jihatlarini bilishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda bolalarning dunyo qarashini kengaytirishga qaratilgan mashqlar juda foydalidir.

Melanxolik bola o'ta sezgirligi bilan ajralib turadi. Uning hissiyotlarini tashqi ifodalanishga ko'ra ancha kuchsiz namoyon bo'lsa-da chuqur va turg'unligi bilan xarakterlanib turadi. U mijg'ovlik va arazchanlikka moyil. Noto'g'ri tarbiya tufayli melanxolikda yuqori hissi ta'sirlanuvshanlik, odamovilik, o'z " qobig'iga o'ralib qolish " kabi salbiy xususiyatlar rivojlanishi mumkin. Melanxoliklar orasida muammoli bolalarni kopiroq uchraatish mumkin, chunki temperamentning bu tipi hissiy xarakterdagi muammolarning tug'ilishi uchun qulay Imkoniyat yaratadi.

Kichkina melanxoliklar qo'rqqoqdek tuyiladilar. Ular ko'pchilik o'ynayotgan o'yinlarga birdaniga qo'shilib keta olmaydilar, lekin kirishib ketsa, butunlay berilib ketadilar. Bunda bolalar orzu, fantziya qilishni yoqtiradilar ulardan juda yaxshi aktyorlar chiqishi mumkin. Xatti xarakterida ko'p narsalar tushunarsizday korinadi, bunday sirlilik ular ichki olamining boyligi bilan asoslanadi. Odatda bunday bolalar g'amgin, o'ta mulohazakor bo'ladilar va kopincha o'zini kattalardek tutadi. Ular faqat o'zi yoqtirgan odamlarbingina kirishib ketadilar, ular bilan muloqotda hozir javob va ochiq ko'ngil bo'ladi. Ular begonalarbilan munosabatga qiyin kirishadigan arzimagan narsagaham xafa bo'ladigan, arazchan har qanday masalada "o'z qobig'iga o'ralib oladigan" bo'ladilar.

Ularning muloqot doirasi tor bo'lib, juda kam kishilar bilan aloqada bo'ladilar, lekin bu aloqalari chuqur va samimiy bo'ladilar. Bunday bolalar tortinchoq, o'ziga ishonmaydigan va ehtiyotkor tuyuladi. Bular biln ko'p shug'ullanish lozim. O'z navbatitida e'tibor va erkananishni aniq sezdirmaslik kerak, chunki uning kechinmalariga ko'p e'tibor berish bolani xudbin qilib qo'yadi. Natijada, u har doim kattalar uning uchun qayg'urushini va ularning diqqat markazida bo'lishni xo'hlab qoladi. Bunday bolani doimo g'amgin fikirlardan chalg'itib, uning diqqatini qiziqarliroq va quvonchliroq bo'lgan narsalarga jalb qilib turish kerak. Kun tartibiga qat'iy amalqilish, mashg'ulot va hordiqni almashtirib turish lozin, chunki bunday bolalar tez toliquvchan bo'lishadi. Kichkintoy melanxolikka doimo o'zining barcha shubhalarni bemalol

gapira oladigan, uning uchun ishonchli, sevimli katta yoshdagi odamning tayanchi kerak bo'ladi.

Kichkina melanxolikkakop miqdorda ruhiy va ma'naviy ozuqa kerak. Uning uchun o'z muammolarini unutishga majbur qiladigan, hayajonlantiruvchi ertaklar va hikoyalar aytib berish zarur. Bunday bolalar uchun chidamlilikni rivojlantiruvchi jissmoniy mashqlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ham unmaslik lozim.

Meelanxolik bolalar boshqalarning hissiy kechinmalarini yaxshi his qiladilar, shuning uchun ularga kichkina bolalar yoki keksa yoshdagilarga qarash kabi ishlarni topshirish foydali. Uiaar mas'uliyatli va ijrochidirlar, monoton, ya'ni bir xil tarzdagi ishlar ularni zeriktirmaydi. O'yin chog'ida bunday bolalar yolg'iz bo'lishadi, bu ularga yoqqani tufayli emas, balki ularning tortinchoqligi va boshqalarga qo'shila olmasligi tufaylidir. Shuning uchun, kattalar o'ta noziklik bilan melanxolik bolalarni o'ynayotgan bolalarga qo'shib qo'yishga harakat qilishlari, ularga bolalar jamoasioga kirishib ketish va unda o'zining o'rnini topa olishlariga yordam berishlari kerak.

Bunday bolalarning o'ziga ishonmasligini hisobga olgan holda, ular bilan bo'ladigan muloqotda, ayniqsa, ularni o'qitish jarayonida rag'batlantirishning turli vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin maqtov va rag'batlantirishlarni o'rnli va mahorat bilan ishlatish lozim.

Xolerik bola noturg'un, faol, behalovat, impulsiv va o'zgaruvchandir. Faoliyat va muloqotda qo'zg'aluvchan, asbiy, qiziqqon, kayfiyati tez-tez o'zgarib turishga moyil, hissiy ko'tarinnkilikka beriluyvchan, gohida tajovuzkor va darg'azab holatda bo'ladigan boladir. Uning harakatlari tez va g'ayratli, nutqi baland.

Xoleriklar o'rtasida muammoli bolalarni ko'p uchratish mumkin, bu esa temperamentning mazkur tipi hissiy muvoanatsiz ekanligi bilan asoslanadi. Zarur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmasa , xoleriklarning qiziqqonligi toqatsizligi qo'zg'aluvchanligi qiyin hayotiy vaziyatda o'z hissiyotlarini nazorat qila olmaslikka olib kelishi mumkin.

Bunday bolalar juda g`ayratli va faol bo`lishadi, ular hamisha nimani xohlayotganliklarini va ularga qanday erishish mumkinligini yaxshi bilishadi. O`yin va mashg`ulotlarda ham ular har doim diqqat e`tiborli bo`lishavermaydi. Xoleriklarga xos bo`lgan tez va oson yuzaga keladigan qo`zg`alish ularga o`zini jamlab olishga xalaqit qiladi va ular chalg`iydi, shu bilan bog`liq ravishda ularda o`qishga moslashib ketish o`quv materiallarini o`zlashtirish kabilar qiyin kechadi¹.

Agar bajarayotgan ishi muhim ekanligini anglasa ,ular mustaqil ravishda ko`p narsalarga erishishi mumkin. Berilgan savolga ular tez xayoliga kelgan fikrni aytishadi, shu lahzaning o`zida tuzata boshlaydi. Bunday bolalar matonat ishlarga toqat qila olmaydilar, shuning uchun ular bajaradigan ishlarning shartlari va usullarini doimo o`zgartirib , hissiy tassurotlar bilan jonlantirib turish lozim. Yangi o`qish yoki ishlar qiziqarli bo`lmasa, ularning shashti tezda qaytadi. Biroq bajarayotgan mashg`uloti o`ziga yoqsa ular shijoat bilan, tez toliqmoy ishlay olishlari mumkin. Ular biron bir qarorga o`ylab o`tirmay mustaqil kelishadi.

Uning hayot ritmi turli xil .bunday bola uyqudan vaqtli turadi, o`zi uxlaydi va kamroq ovqat yeydi, taom tanlamaydi. Bemalol harakatlanadigan, o`ynaydigan sakraydigan chopadigano`yilarni cho`zilib yotadigan keng yoyni ma`qul ko`radilar. Tor xonada toqat qilolmaydi.

¹ E.G`oziev, K.Daminov. Bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1992, 16-bet.

2.2. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari.

SHaxs o'zining kundalik faoliyati davomida o'z atrofida bir qancha odamlar bilan muloqatda bo'ladi. Ana shu muloqot jarayonida ularning xilma-xilligini idrok etadi. Ularning bir qismi jo'shqin, hissiyotli, keng qiziqishli, serxarakat bo'lsa, ikkinchilari aksincha, vazmin, kamgap, xarakatlari sust, beparvo, osoyishta hissiyotli bo'ladilar. Odamlar o'rtasidagi bu farqlanish ular individual sifatlarining muhim sohasi bo'lgan temperament tiplari xususiyatlarining natijasidir. SHaxsga xos hissiyotlarning yuzaga kelish tezligi va kuchi, umumiy xarakatchanligining sur'at va sifati temperament tipi sifatlarining majmui hisoblanadi. Bu majmuani nerv sistemasining kuchi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi muvozanat hamda nerv jarayonlarining xarakatchanlik xususiyatlari tashkil etadi.

Temperament lotin tilidagi «*temperamentum*» so'zidan olingan bo'lib, aralashma, qorishiq. degan ma'noni bildiradi.

Psixologiya fani tarixida temperament haqidagi ta'limotni birinchi bo'lib qadimgi grek olimi Gippokrat yaratdi. Gippokrat temperamentning mohiyati va temperament tiplarining nomlarini asoslashga xarakat qildi. Lekin Gippokratning odam, gavdasining asosiy elementlari haqidagi fikrlari. singari temperament tiplarining sabablari haqidagi fikrlari ham ilmiy nuqtai nazarga to'g'ri kelmaydi.

Xolerik, sangvinik, melanxolik. flegmatik temperamentlar qadimgi Gretsiya faylasuflarining to'rt element: havo, suv, olov va tuproq elementlari va bu elementlarga muvofiq keladigan sifatlar: issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik sifatleri to'g'risidagi gipotezalariga asoslangan edi. Ular organizmda bu elementlarga to'g'ri keladigan to'rtta asosiy suyuqlik bor deb hisoblaydiqlar, temperamentlar orisidagi farqning sababi shu suyuqliklardan ba'zilarining ortiq bo'lishidir deb izoxladilar. Temperament tiplarining nomlari ham ana shu suyuqliklardan kelib chiqqan. Masalan. xolerik grekcha "xole" so'zidan olingan bo'lib, o't yoki safro demakdir; sangvinik "sandus" so'zidan olingan bo'lib, qon demakdir; melanxolik grekcha "melanxole" so'zidan olingan bo'lib, qora o't demakdir; flegmatik grekcha "flegma" so'zidan olingan bo'lib, balg'am, shilimshiq modda demakdir.

Yuqoridagi suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib. ularning har birining o'z vazifasi, o'z ishi bor Chunonchi, uning xususiyati quruqlikdir. Uning ishi organizmdagi quruqlikni saqlab turish, badanni quruq tutishdir. Qonning xususiyati issiqlik bo'lib, ishi organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati namlik bo'lib, ishi badanning namligini tutib turishdir. Balg'amning xususiyati sovuqlik bo'lib, ishi badanni sovutib turishdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, har qaysi odamda yuqoridagi to'rt xildagi suyuqlikdan ko'proq bo'lib, ustun turadi. Ularning qaysi biri ustun bo'lishiga qarab odamlar temperament jixatidan har xil bo'ladilar. Xoleriklarda o't yoki safro ustun. Sangviniklarda qon, melanxoliklarda qora o't, flegmatiklarda esa balg'am ustun turadi.¹

Ko'rinib turibdiki, Gippokratning temperament va uning tipariga oid ta'limoti qadim zamonlardan bizning davrimsizgacha saqlanib kelayotgan bo'lsa ham hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Temperament va uning tiplari hakidagi mukammal ilmiy nazariyani mashhur rus psixologi I.P.Pavlov yaratdi va bu sohada o'zining "Nerv sistemasining tiplari" nomli talimotini kashf etdi. Akademik I.P.Pavlov nerv sistemasining kuchli, muvozanatsiz, sust (xolerik temperamentga asos bo'lgan), kuchli, muvozanatli, epchil (sangvinik temperamentga asos bo'lgan), kuchsiz (melanxolik temperamentga asos bo'lgan), kuchli, muvozanatli, sust (flegmatik temperamentga asos bo'lgan) kabi to'rtta umumiy tipini aniqladi.

Akademik I.P.Pavlov juda ko'p tajribalar natijasida nerv sistemasining kuchi xujayralardagi fiziologik moddalarning zapas miqdori bilan belgilanishini isbotlaydi

Nerv sistemasiniig kuchi qo'zg'alish jarayoniga ham. tormozlanish jarayoniga ham taalluqli bo'lib, kuchli qo'zg'ovchilarga bardosh bera olish qobiliyatida nomoyon bo'ladi.. Xuddi shuning singari nerv sistemasidagi

¹ Umumiy psixologiya (A.V. Petrovskiy tahr.). Toshkent, 1992, 148-bet

qobiliyatida nomoyon bo'ladi.. Xuddi shuning singari nerv sistemasidagi qobiliyatida nomoyon bo'ladi.. Xuddi shuning singari nerv sistemasidagi muvozanat nerv sistemasining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini baravar tutib tura bilishda ko'rinadi. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda, nerv sistemasida muvozanat bo'ladi. Agar qo'zg'alish yoki tormozlanish jarayonlaridan biri kuchliroq. yoki kuchsizroq bo'lsa, nerv sistemasida muvozanat bo'lmaydi.

Nerv sistemasining ildamligi miya po'stining biror qismidagi qo'zg'alishning tormozlanishi yoki qo'g'kalish bilan naqadar engil almashinishidan iboratdir.

SHunday qilib, shaxsdagi xatti-xarakatlarning, imo-ishoralarning aniq va ravshanligi, hissiy xolatlarning qo'zg'alish kuchi, barqaror va beqarorligida namoyon bo'ladigan individual sifat temperament yoki mijoz deb aytiladi.

Temperament tiplarining xarakteristikasi quyidagilardan iborat;

1. Xolerik temperament. Bu temperamentdagi kishi biror narsaga qattiq kirishadi. Uning faoliyati, kuchi, g'ayrati oshib ketadi. Arzimagan to'sqinlikdan kuchli g'azablanadi. Natijada ruxi, g'ururi. rashki, qasos olish kayfiyati, izzat-nafsi oxirgi chegarasiga borib etadi. U kam, o'ylab, tez ishga kirishadi, o'zini hamma vaqt xaqli deb xisoblaydi va o'z bilganidan qolmaydi, yo'l qo'ygan xatolarini bo'yniga olishi juda qiyin. Uning intilishlari, qiziqishlari barqaror. o'z qarorlarida qat'iy va mustaxkam, emotsional xolatlarning almashinishi juda sekin.

2. Sangvinik temperament. Bu temperamentdagi kishilarda xuzur-xalovat ko'rishga intilish kuchli, hissiyot tez qo'zg'aladi, lekin uzoqqa cho'zilmaydi. U o'zining ko'ngliga yoqqanini qiladi, boshqalar bilan tezda do'stlashadi, ammo mayli tez o'zgaradi, jaxli tez chiqadi va tez qaytadi. Bu temperamentdagi shaxs va'da beradi-yu, bajarishni unutib qo'yadi. Sangvinik har narsaga tez ishonaveradi, reja tuzadi, lekin undan tezda voz kechadi. Unga tasalli , berish oson, u ochiq, shirin so'z. raxmdil, ulfatchilikni sevadigan, nafsoniyatni bilmaydigan shaxs.

Sangvinik temperamentdagi shaxsni intizomga chaqirish oson, u diqqatini tez to'playdi. aqli tez ishlaydi, topqir. Xarakatlari, hissiyotlari, kayfiyat va.qiziqishlari barqaror, malakalarni tez o'zlashtiradi, darslarda tez-tez qo'l ko'taradi.

3. Melanxolik temperamet. Bu temperametdagi shaxslar g'am-g'ussaga juda moyil bo'ladilar ular oson hayajonlanadilar. Ulardagi noxush xolat yoqimli hislarga nisbatan tez-tez sirtga tepadi va uzoq davom etadi.

Melanxoliklar arzimagan narsaga xafa bo'ladilar. Ularning hayotida uchraydigan to'siqlar umidsiz, g'ayratsiz, qiyinchiliklaridan qutilishga noqobil qilib qo'yadi, g'am-g'ussalari bosilmaydigan, g'amginlik alomatlari kuchli bo'ladi.

Melanxolik tipdagi shaxslar nihoyatda arazchan bo'ladi. Ular samimiy bo'lib, sekin yig'lab oz kuladilar, o'zlariga ishonmaydilar, darsda kam qo'l ko'taradilar, ularning diqqati tez chalg'iydi va beqaror bo'ladi.

4. Flegmatik temperament. Bu temperamentdagi shaxs hissiyotga tez berilmaydi. Bu temperamentdagi shaxslar bosiq bo'lib, o'zini bemalol tuta oladi va buning uchun hech qanday jismoniy kuch sarflamaydi. Flegmatik temperamentdagi shaxslar jo'shqin va chuqur hissiyot ta'siriga berilmaydilar. O'z faoliyatlari uchun darhol qaror qabul qila olmaydilar. Ular og'ir, arz-holini hadeb aytavermaydilar, azob-uqubatlarni sekin o'tkazadigan, boshqalarning azob uqubatlariga parvo qilmaydigan bo'ladilar.

Parva Tursunning "O'qituvchi" romanidagi Alimqul obrazi flegmatik tipning yaqqol timsoli bo'la oladi. Sotvoldining dushmanlar tomonidan vaxshiyona o'ldirilishi uning qarindosh-urug'larida dushmanlarga nisbatan kuchli g'azab, nafrat uyg'otadi, bazilarida oh-faryod xolatlarini vujudga keltiradi. Alimqulda bu xolat sabr-toqat, ich-ichidan alamzada bo'lish tarzida o'tadi. Unda sabr-toqatlik yuragi kenglik, yuvoshlik, mo'minlik, jaxli chikqqani ham, xafahollik kuchi ham sezilmaydi. Alimqul birovdan nolimaydi, shikoyat qilmaydi, kamgap, barchaga baravar munosabatlari bilan o'zini namoyon etadi.

Flegmatik temperamentdagi shaxslar o'z istaklarini hamisha biladilar, birovlarning ishiga aralashmaydilar, ularga yalqovlik, xafsalasizlik, beg'amlik, xunoblik, anqovlik kabi xislatlar xosdir. Flegmatiklarni kuldirish, jaxlini chiqarish, kayfiyatini buzish juda qiyin:

Flegmatiklar o'z diqqatlarini bir nuqtaga sekin to'playdilar va qiyin ko'chiradilar. Ular yangi sharoitga sekin moslashadilar va o'z malaka va odatlarini

sekin o'zlashtiradilar, yangi odatlarni sekin o'zlashtiradilar va tashqi ta'sirotlarga sekin javob qaytaradilar.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, doimiy va o'zgarmas temperament, shuningdek yaxshi va yomon temperament ham yo'q. Muhitga, sharoitga, ta'lim va tarbiyaga qarab temperament tipi ham o'zgaradi. Masalan, buyuk masalchi I.A.Krilov va sarkarda M.I.Kutuzov flegmatik temperamentli shaxslar, shoir V.A.Jukovskiy, kompozitor TT.I.CHaykovskiy, yozuvchi N.V.Gogol esa melanxolik temperamentdagi shaxslar bo'lganlar.

Psixologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ana shu temperament turlari sof holda, ya'ni sof xolerik, sof sangvinik, sof melanxolik va sof flegmatik tarzda bo'lmaydi. Aksariyat odamlar aralashgan temperament turiga ega bo'ladilar. Odamda qaysi xildagi temperamentning xususiyatlari ko'proq namoyon bo'lsa, shunga qarab uni u yoki bu tipga mansub deb aytamiz. Masalan, serg'ayrat, serharakat, tinib-tinchimas, hamma narsa bilan qiziqadigan shaxsni flegmatik temperamentdagi odam deb xisoblanadi.

Har bir temperament tipining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Yaxshi tip hisoblangan xolerik shaxsning salbiy tomoni shundaki, unda tormozlanish jarayoni sust bo'ladi, xolerik ba'zi xollarda nojo'ya xarakatlardan o'zini tiya olmaydi. Xolerik tipidagi shaxsning ijobiy xislatlari uning g'ayrati, qat'iyligi, xarakatlar tezligi, o'tkir zehnligi bilan yuzaga keladi. Flegmatik tipdagi shaxsga xos salbiylik shundaki, u juda sustkash va beparvo bo'ladi. Flegmatikning ijobiy fazilatlari uning aqliy sustligida, vazminligida namoyon bo'ladi.

Xozirga sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashish, ularning temperament tipini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, turli tipdagi temperamentli o'quvchilar o'quv va tarbiya ishlar jarayonida o'z-o'zini tuta bilishga o'rgatish, ularda bir me'yorda ishlash odatini doimiylik va sistemalilik odatini tarkib toptirish pedagogik muvaffaqiyatning zarur shartlaridan biridir.

Odamga tug'ma ravishda beriladigan temperament xususiyatlari yoshning ug'ayishi bilan bog'liq tarzda o'zgaradi. Temperament tipi xususiyatlarining sifat

mazmuni isloh etilishida ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun har bir shaxsdagi temperament tipi sifatlarini o'zgarishda, o'sishda dsb qarash maqsadga muvofikdir.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi to'rt tipning har biri aloxida sifatlarga ega bo'lishi bilan birga ularda takror uchraydigan, turli situatsiyalarda tez o'zgarishga moyil xususiyatlar ham bor. SHunday ekan, tabiat toza, faqat bir tipgagina xos bo'lgan sifatlardan iborat temperament uchramaydi. Temperament aloxida olingan har bir kishining umumiy va uning nerv sistemasining asosiy tavsifi bo'lib, bu tavsif shaxsning butun faoliyatiga tasir etadi.

Temperament tiplari psixologiyasini o'rganishning dalolaticha, bir xil temperamentdagi odamlar ham xilma-xil bo'ladilar Ma'lumki, har bir kishi takrorlanmas shaxs hisoblanadi. Shuning uchun uni yuqoridagi temperament tiplaridan biriga kiritish hamisha ham to'g'ri bulavermaydi. Ikkinchidan, ayrim odamlarning shaxsi birgina tipdan tashqari ikki va undan ham ko'proq tipning belgilariga ega bo'ladi. SHunga muvofiq shaxsda xolerik va sangvinik, melanjolik va flegmatik tiplar xususiyatlari aralash tarzda uchraydi.

Yana bir muhim masala shuki, bir temperament tipini yaxshi, boshqasini yomon deyish ilmiy jihatdan to'g'ri emas¹. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir temperament tipining o'ziga xos ijobiy va salbiy sifatlari bor.

SHunday qilib, temperament sifati shaxsning ko'zga yaqqol tashlanib turadigan individual psixologik xususiyati bo'lib, har bir odamning qaysi temperament tipiga mansubligini aniqlashning juda katta ahamiyati bor. Birinchidan, temperament tipini bilish shaxslararo munosabatlarda ijobiy rol o'ynaydi. Ikkinchidan, yosh avlod ta'limi va tarbiyasini davr talabi asosida tashkil etish muvaffaqiyatga erishuv garovi bo'lib xizmat qiladi.

Melanjolik – o'zgarib turuvchan, kamharakat tur. Juda sezgir, beqaror, o'z kuchiga ishonmaydigan va uyatchan. Xis-tuygu va xayajonlari sekin o'yg'onadi, ancha munchaga jaxli chiqmaydi.

¹ Umumiy psixologiya (A.V. Petrovskiy tahr.). Toshkent, 1992, 400-bet.

Ammo g'azablansa, o'tib ketishi juda qiyin kechadi, katta kuch va uzoq vaqt kerak bo'ladi.

Melanxolik tez ranjiydi, xafagarchilikni ko'ngliga og'ir oladi, tashqi ko'rinishida bular yaqqol namoyon bo'lmaydi.

U jimjitlikka va yolg'izlikka moyil bo'lib. O'ziga yaxshi tanish bo'lmagan yoki butunlay notanish insonlar bilan suhbatlashishdan qochadi, yangi shart-sharoitda o'zini juda noqulay sezadi. Xamma yangiliklar, odatdan tashqari narsalar unga xalaqit beradi. Biroq bunday odamlar o'rganilgan tinch shart-sharoitda o'zlarini yaxshi xis qiladilar va juda samarali ishlaydilar.

Xolerik - o'zini tutib turolmaydigan, qiziqqon tur. Ushbu mijoz vakillari tez va xaddan ziyod ko'p xarakat qilishadi, bir xilda turmaydi, bezovta, ruxiy holati tez o'zgaruvchan.

Asablarning qo'zgalishi va tormozlanishi keskin harakatlarida, jizzakiligida, jaxldorligida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular ma'nodor mimikalarga, shoshqalok, alkash-chulkash, notekis nutqqa, shiddatli hatti-harakatga ega bo'ladilar. O'ta hissiyotli bo'lib, tez yonib tez uchadilar va kayfiyatlari xam tez-tez o'zgarib turadi. Xolerikning o'zgaruvchanligi uning ish faoliyatida xam o'z ta'sirini ko'rsatadi: u haddan ziyod oshiqib va hatto qurquv bilan ishga kirishadi, shiddat va shijoat bilan ishlaydi. mashakatlarni engib o'tadi. Ammo ortiqcha ruxiy energiyasi tez tugab qoladi va birdaniga uzoq vaqt uyquga ketadi, birdaniga tushkunlikka tushadi.

Xolerik odamlar bilan munosabatda o'z xistuyg'ularini tuta bilmaydi va birdaniga, o'ylab o'tirmay muomala qiladi. SHuning uchun xam odamlarga baxo berishda ko'p yanglishadi va u bilan oilada xam, ishxonada xam doim ziddiyatli vaziyat yuzaga keladi. Betgachoparlighi, tavakkalchilighi, tez xafa bo'lishi, sabrsizlighi tufayli xolerik bilan muomalada bo'lish kiyinrok kechadi.

Sangvinik - chinakamiga vazmin. Bu mijozga mansub odam odamlar bilan tez til topishadi, xayotdan mamnun yashaydi, bir faoliyatdan boshqasiga o'tganda

oson moslashadi, biroq doimiy bir hil ishni yoqtirmaydi. Sangvinik xistuygularini oson boshqaradi, yangi shart-sharoitga tez ko'nikadi. Yangi jamoa bilan oson til topishadi, begonalik sezmaydi.

Uning nutqi baland, tez, dona-dona hamda ma'nodor mimika va hatti-harakatlarga boy. Ammo sangvinikni junbushga keltiradigan sharoit yaratib berish kerak, shundagina u o'zini g'ayratli, serxarakat tutadi, unga hamisha yangi va qiziqarli taassurotlar kerak.

Agar faoliyati uzoq davom etadigan va bir xil bo'lsa, u ishiga qiziqishini yuqotadi, befarqlik, xunoblik avj oladi. Sangvinikda turli xis-tuyg'ular tez uyg'onadi, biroq ular mukarrar emas. His tuygu qanchalik tez uyg'onasa, shunchalik tez sunishi va xatto aksiga aylanib ketishi ham mumkin. Sangvinikning kayfiyati tez o'zgaradi, ammo bir pasda odatdagiday yaxshi jihatga o'zgaradi.

Flegmatik - vazmin, kamharakat mijoz. Ushbu mijoz vakillari sekin xarakatlanuvchan, shoshmaydigan, og'ir odamlardir. U boshlagan ishini oxirigacha o'zgarmasdan, o'ylab, sabot va extiyotkorlik bilan bajaradi. Flegmatikda ruxiy jarayonlar xam juda sekin kechadi. His-tuygulari odatda ravshan emas. Buning sababi - doimiy bir xillik va ruxiy jarayonlarning sekin kechishida. Odamlar bilan munosabatda flegmatik xamisha bir xil, bosik, me'yorida kirishuvchan, kayfiyati esa xamisha turg'un. Uning o'zidan chiqib ketishi va ruxan qo'zgalishi kiyin. Bunday odam uchun uzoq vaqt sovukkonlik va vazminlik bilan bajariladigan ishlarni bajarish oson.

Ammo flegmatikni kup harakatni, tezkorlik va faollikni talab qiladigan ishlarga jalb etish tug'ri kelmaydi, aks xolda u zerikib qolishi, o'z mukarrarligini yuqotishi mumkin. SHuni esda tutish kerakki, insonlarni aniq to'rt mijozga ajratish juda qiyin. Juda ko'pchilik odamlarda bir nechta mijoz vakillarining tabiati mavjud bo'ladi. Aynan bir mijozga mansub odamlar kamdan-kam uchraydi. Bundan tashqari, inson o'zini-o'zi tarbiyalashi natijasida mijoz uzgarishi xam mumkin. O'z mijozini o'zgartirishga harakat qilib, bunga erishgan odamlar hayotda ko'p uchraydi.

X A R A K T E R

Umumiy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri mustaqillik sharoiti shaxsning xulq-atvori xarakter xislatlarini keng rejada tadqiq etishdir.

Respublikamizda ijtimoiy muhit o'zgardi, jamiyatimiz tarkibida yangi-yangi qatlamlar vujudga keldi, odamlar shug'ullanadigan kasblar boshqacha mazmunga ega bo'layapti faoliyat qirralarining o'zgarayotgani natijasida odamlarning xulq-atvori ham yangilanish-milliylik kasb etmoqdaki, bularning hammasi psixologiya fani oldiga dolzarb muammolar qo'yimokda.

Ana shunday muammolardan biri milliy xarakter masalasidir. Milliy xarakterni o'rganish hozirga zamon uchun zarur bo'lgan muhim masala bo'lib, uni umuminsoniy qadriyatlar negizida o'rganish maqsadga muvofikdir.

Tabiiyki, milliy xarakterni o'rganish uchun o'zbek xalqining hayotini, turmush tarzini chuqur bilish zarur. Chunki, hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar bor. Bu xususiyatlar har bir xalqning kundalik hayotida, boshqa xalqlar vakillari bilan muloqotlarida ko'zga tashlanadi.

Milliy xarakterga xos xislatlarning ildizlari o'zbek xalqining moddiy hayot sharoitlari, yashash uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlar ishlab chiqarishdagi o'ziga xoslik, turli mehnat faoliyati davomidagi o'zaro munosabatlaridir. Ana shu manbalarda o'zbek xalqining o'ziga xos xarakter sifatleri, ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, taraqqiyot omillari o'z ifodasini topgan bo'lib, bularning barchasi shu xalq, uchun xos bo'lgan xarakter xislatlarini ifodalaydi.

Har bir tarixiy davrda shu davr ijtimoiy muhiti, moxiyati talablariga asoslangan xarakter xislatlari yuzaga keladi va rivoj topadi. Ana shu jarayonda umuxarakter xislatlari bilan birgalikda milliy xarakter xislatlarini ham xukmron bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, milliy xarakter xislatlari hozirgi manbalarda qayd etilganidek, faqat vatanparvarlik, mehnatsevarlik, dovyuraklik, erksevarlik kabilardangina iborat bo'lmay, milliy xarakter xislatlari tizimiga o'zbek xalqining aqliy kamoloti, boshqa xalqlarga munosabati: shu xalq vakillarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi.

Har bir xalqqa xos bo'lgan xarakter xislatlari bilan bir qatorda barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan xarakter xislatlari ham bor. Masalan, vatanparvarlik,

mehnatsevarlik, dovyuraklik, erksevarlik barcha xalqlarga xos fazilat bo'lsa-da, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, geografik muhiti, mehnat tarzi bilan bog'liq holda har bir millatda o'ziga xos mohiyat kasb etadi.

Mehnatsevarlik o'zbek xalqining asosiy xarakter xislatlaridan biri bo'lib, bu sifat dexqonchilik, bog'dorchilik kabi mehnat sohalarida namoyon bo'ladi. Halqimizning paxtachilik, pillachilik va mevachilikdagi mehnatsevarligi uning dong'ini dunyoga taratdi. Hozirgi kunda respublikamizda ishbilarmonlik xarakati keng avj oldirildiki, bu mustaqillik sharoitida mehnatga yangicha munosabitining yorqin namunasidir.¹

Mehnatkashlik-o'zbek xalqining milliy kasbi. U dehqonchilikning hamma mashaqqatlariga tabiatning qudratli kuchlari oldida ojizlik, baxorgi suv toshqini, qurg'okchilik, suvsizlik. azoblariga mardona bardosh beradi, har qanday ob-havo sharoitida ham o'z mehnati bilan yangi erlar o'zlashtiradi, bog'-rog'lar yaratadi, erga haqiqiy insoniy mexr bilan munosabatda bo'lib, dasturxon mo'l-ko'lchiligini ta'miilaydi. Demak, zaxmatkashlik avloddan-avlodga o'tib, o'zbek xalqining asosiy xarakter hislati bo'lib qolgan.

O'zbek milliy xarakteriga xos yana bir muhim tomoni shundaki, o'zbek xalqida. kattalarni, ota-onani xurmat qilish, ularning aytganlarini so'zsiz ijro etish qat'iy odat tusini olib, mustahkamlangan va shu xalqning umumiy xarakter xislati bo'lib kelgan. Oila sharoitidagi o'zaro munosabatlarda yoshlar o'zidan kattalarga itoat etadi, hurmat ko'rsatadi. Bu kabi munosabatlarning yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyati bor. Umuman xarakter xislatlarida bo'lganidek milliy xarakter sifatleri ham doimiy, o'zgarmas emas. Ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit bilan bog'liq xolda milliy xarakter xislatlari ham o'zgaradi. Lekin milliy xarakterning ayrim sifatleri umuminsoniy xarakter xislatlari tarzida saqlanib qoladi. Chunki, milliy xarakter xislatlari umumbashariy xarakter xislatlari negizida vujudga keladi va unga zid bo'lmaydi. Har bir halq, boshqa xalqlar bilan muloqotlar jarayonida ulardan o'zida. yo'q xarakter xislatlarini oladi, ayni vaqtda.

¹ Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. Toshkent, 1995, 155-bet

ular da bo‘lmagan xususiyatlarni ularning o‘zlashtirishiga ham imkon yaratadi Ana shu kabi imkoniyatlarga asoslanib, xarakter termini (yunoncha "xarakter") o‘zbek tiliga belgi, xislat, xususiyat, nishon ma’nolarida tarjima qilinadi.

SHaxsning ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya ta’sirida tarkib topgan, uning voqe’likka, o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadigan muayyan sharoitlardagi xatti-xarakatlaridan iborat bo‘lgan barqaror individual-psixologik xususiyatlar yig‘indisi xarakter deb aytiladi.

Xarakterni tashkil etuvchi xususiyatlar xarakter (xulq-atvor) xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari doimo o‘zgaruvchan moxiyatga ega bo‘lib; shaxsning hayot tarziga, unga beriladigan ta’lim-tarbiyaga bog‘liq holda tarkib topadi, o‘zgaradi va tarbiyalanadi¹.

Xarakter xislatlari shaxsning hayoti jarayonida tarbiya topgan intellektual, emotsional va irodaviy xususiyatlari yo‘nalishning yig‘indisidan iborat bo‘lib, bu xususiyatlar shaxsning hayot. sharoitlari ta’sirida vujudga kelgan muayyan xulq-atvor normalaridir, Bu sifatlar shaxsning xulq,-atvori negizini tashkil qiluvchi xatti-xarakati o‘ziga va boshqalarga, mexhnatga,jamiiyatga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Har bir shaxsda beg‘amlilik, beozorlik, mohirlik, mustaxkamlik, jozibadorlik, kamsuqumlik, yoki yoqimtoylik, jonkuyarlik, jiddiylik., farosatlilik, mustaxkamlik, oqko‘ngillik, ozodalik, bilimdonlik, poklik, mexnatsevarlik, ma’naviyatlilik. qatiylik, sinchkovlik, itoatlilik, insonparvarlik, sotsiallik, iffatlilik kamtarlik, tirishqoqlik, , sofdillik, uyatchanlik,tartiblilik, xushtabiatlik, uzoqni ko‘ra bilishlik, fidoyilik kabi ijobiy xislatlar bilan birga gapdonlik, andishasizlik, vijdotsizlik, razillik, loqaydlik, go‘llik. beorlik, jura’atsizlik, ochko‘zlik, prinsipsizlik, pismiqlik, ziqnalik, firibgarlik, qo‘rqoqlik, xudbinlik, qo‘pollik, qasoskorlik, shilqimlik, tannozlik, ezmalik., qaysarlik, ikki yuzlamachilik kabi salbiy sifatlar ham bo‘ladi. Ana shu ijobiy yoki salbiy sifatlarning namoyon bo‘lish darajasiga

¹ Umumiy psixologiya (A.V. Petrovskiy tahr.). Toshkent, 1992, 400-bet.

qarab, u yaxshi inson, u esa yomon odam deb u yoki bu odam haqida gap ketganda unga baho beriladi Ijobiy xarakter xislatlarining shaxs uchun amaliy ahamiyati katta. ijobiy xislatlar shaxs uchun ziynat hisoblanib, unga soflik, latiflik, musaffolik ruhini singdiradi. El orasida obro‘-e’tiborli qilinadi. Salbiy xarakter xislatlariga ega bo‘lgan shaxslardan xalq nafratlanadi ularni so‘zsiz qoralaydi.

Psilolgik jarayonlarning shaxs faoliyatidagi xukmronligi nuqtai nazaridan xarakter xislatlari axloqiy, emotsional va irodaviy xususiyatlarga bo‘linadi. Voqelikka munosabat nuqtai nazaridan esa xarakter xislatlari quyidagi guruxlardan iboratdir:

a) SHaxsning umumiy ruhiy tuzilishini ifodalaydigan xususiyatlar. Bunday xususiyatlarga g‘oyaviylik, maqsadga intiluvchanlik, prinsipiiallik, halollik, vatanparvarlik, mardlik, faollik, intizomlilik, adolatparvarlik kabi. sifatleri kiradi;

b) SHaxsning boshqa odamlarga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar. Bunday xususiyatlarga insonparvarlik, saxiylik, samimiylik, hurmat-extirom, jamoatchilik, sezgirlik kabilar kiradi;

v) SHaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar. Bunday xususiyatlarga o‘z qadr-qimmatini bilish tuyg‘usi, kamtarlik, mag‘rurlik, uyatchanlik, xudbinlik, o‘z shaxsi, o‘zining kechinmalari bilan band bo‘lish, o‘zini hamisha o‘z diqqat markazida tutish kabi sifatlar kiradi;

g) SHaxsning o‘z-kasbiga, mexnatga munosabatiga ifodalovchi xususiyatlar. Bunday xususiyatlarga o‘z xalqiga, mexnatkash ommaga mexr, muhabbat, qat’iyat, ijodkorlik. tashabbuskorlik, mexnatsevarlik, xalollik kabi muhim fazilatlar kiradi;

d) SHaxsning buyumlarga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar. Bunday xususiyatlarda shaxsning puxtaligi, beparvoligi, tejamkorligi, isrofgarchiligi, o‘z va o‘zgalar mulkiga munosabat nuqtai nazaridan ifodalanadi. Ko‘rinib turibdiki, shaxsning umumiy psixologik tuzilishida, beshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga, mehnatga na buyumlarga munosabatlarida, xarakterining ijobiy xususiyatllari ham. salbiy xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi, Xarakterning ijobiy xususiyatlari orasida ahloqli xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Axloqiy xususiyatlar axloqiy tuyg‘ularga asoslangan bo‘lib, shaxsning jamiyat talablariga javob beradigan ma’naviy xulq-

atvorini ifodalaydi. Bular orasida ayniqsa, vatanparvarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik sifatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yuqori tuyg'ularda har bir shaxsning o'z vatani, xalqi, yurti, eli deb yonib yashashi aks etadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan hozirgi vaqtda vatanparvarlik tushunchasining mohiyati boshqacha bo'lib qoldi. Muqaddas O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan har bir katta-yu kichik inson uning har bir qarich erini ko'z qorachig'iday asrashi zarur. Endilikda vatanparvarlik faqat his-tuyg'ulardagina emas, kundalik amaliy xarakatlarda, mustaqillikni mustaxkamlash yo'lida qilinadigan fidokorona mehnatda o'z ifodasini topishi kerak. Hozirgi sharoitda haqiqiy vatanparvar bo'lish uchun har bir odamga vatanparvarlik sifati bilan yonma-yon tarzda insonparvarlik, jamoatchilik, baynalminalchilik halollik, rostgo'ylik, to'g'rilik, mehnatga muhabbat, xalq va jamiyat oldida o'z burchini chuqur anglash, boshqlarga foyda keltirishga doim tayyor bo'lish g'oyalariga sadoqat ham zarurki, bu xislatlarsiz shaxsni to'laqonli vatanparvar deb bo'lmaydi.

SHaxsning ijobiy xarakter xislatlarida kuch-g'ayrat, faollik, mardlik, uyushqoqlik, qat'iylik, sabr-matonat, mustaqillik, izchillik kabi irodaviy xususiyatlarning roli kattadir. CHunki, bu kabi irodaviy xususiyatlar shaxslarda o'zaro xurmat, halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik, kamtarlik, oilada bir-birini hurmat qilish, bolalar tarbiyasida g'amxo'rlik qilish kabi ma'naviy sifatlardan bilan bog'liq bo'lib, xarakterning umumiy ijobiy xislatlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, shaxs faoliyatining ayrim hollarida namoyon bo'ladigan qat'iylik, jasurlik, mardlik, matonatlilik, dadillik, o'z-o'zini tuta bilish kabi sifatlardan barqaror xarakter xislati bo'la olmaydi. Agar shaxs jasorat ko'rsatdi, dadillik qildi, rostgo'ylik, sofdillik namoyon etdi, deyilsa, ma'lum paytdagina namoyon bo'lgan bu sifatlardan barqaror xarakter xislati bo'la olmaydi. Bunday xislatlardan doimiy va barqaror bo'lgandagina xarakter sifati bo'la oladi. Bu vaqtda unday shaxslardan haqida gap ketganda dadil, mard, jasur, rostgo'y kabi xarakter sifatlari qo'shib aytiladi.

SHaxs ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy muhit maxsul, uning xarakter xislatlari xam ijtimoiy muxit va sharoitlarning mahsulidir. Jamiyat tarkibi bilan bog'liq xolda xarakter xislatlari tabaqalashgan moxiyat kasb etadi. Turmush sharoitlari va ijtimoiy borliqning o'zgarishi bilan bog'liq xolda jamiyatimiz a'zolarining xarakter sifatleri ham o'zgarib boradi.

Bundan bir necha yil muqaddam O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Buning natijasida respublikamizda yangi ijtimoiy muhit vujudga keldi. Natijada jamiyatimiz a'zolari xulq-atvorida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan milliy xarakter xislatlarining yuzaga kelishi va rivoji uchun mustaxkam zamin yaratildi, mamlakatimiz xalqlarining xarakter sifatleri yangi mazmun kasb eta boshladi.

Hozirgi kunda mustaqillik sharoiti respublikamiz ahlining individual xususiyatlarini, umuminsoniy xarakter sifatlarini, mukammal qaror toptirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatga ega bo'ldi. Qisqa tarixiy davr mobaynida sovet ijtimoiy tuzumi shaxsiga xos salbiy xarakter sifatleri tag-tomiri bilan inqirozga yuz tutdi. Endilikda manmanlik laganbardorlik. prinsipsizlik, mustaqilsizlik kabi o'tmishda avj olgan xarakter xislatlari kun sayin yo'qolib bormokda.

YAngi mustaqillik sharoiti shaxsiga xos xarakter sifatleri jamiyatimiz a'zolarining mexnatga munosabatlarida, mustaqillik manfaatlariga sadoqatida, o'zaro munosabatlaridagi yuksak axloqiy sifatlarida, irodaviylikning yuqori ko'rinishlarida o'z ifodasini topmoqda.

Jamiyatimiz a'zolari umuminsoniy axloq normalarida ifodalangan axloqiy tamoyillarni o'zlarining barqaror xarakter xislati deb biladilar. Mustaqillik g'oyalari sadoqat, Vatanga cheksiz muhabbat, halollik, mexnatsevarlik, ijtimoiy burchni idrok qilish, do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, axloqiy poklik, oddylik., kamtarlik, samimiylik. mexribonlik, g'oyaviy mustaxkamlik kabi xarakter xislatlari jamiyatimiz a'zolarining kundalik hayotiy ehtiyojiga aylanmokda.

SHaxsdagi xarakter xususiyatlari hamisha, bir-biri bilan bog'liq. holda namoyon bo'ladi va bu hususiyatlar yaxlitligi (bir butunligi) xarakter tuzilishini tashkil etadi.

SHaxs harakteri, tuzilishi (strukturasini) tashkil etuvchi boshqa shaxslar va jamoaga munosabatini, mehnatga munosabatni, buyumlarga (narsalarga) munosabatni hamda o'z-o'ziga munosabatlarni ifodalovchi xislatlar odamga tug'ma tarzda berilmaydi. Buning manosi shuki, odam bolasi dunyoga kelgach, unda qat'iy xarakter xislatlari paydo bo'lishi va rivoj topishini oldindan hech kim ayta olmaydi. Gudakda birinchi harakter xislatlarining ko'rtaklari oila sharoiti ta'sirida vujudga keladi. Bu ko'rtaklarning kelajakdagi mohiyatini ota-onaning, oiladagi boshqa katta a'zolarining namunaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan hulq-atvori belgilaydi. Bu haqiqat hadislarda ham o'z ifodasini topgan.

Keyinchalik maktabgacha tarbiya muassasalari bolada ijobiy harakter hislatlarining o'sishida katta rol o'ynaydi. YAsli va bog'chalarda bolalar kattalarni xurmat qilish, ular bilan samimiy salomlashish, tengdoshlari bilan chin do'st tutinish, ijtimoiy mulkka munosabat, ozodalik, intizomga rioya qilish hislatlarini o'zlashtiradilar. Bu paytda bolaning ijobiy harakter hislatlarini o'ziga mustahkam singdirishiga jiddiy e'tibor berish kerak. CHunki shaxsning kelajakda hayot yo'li qanday bo'lishi unda yoshligida barqaror tarkib topgan hulk-atvor sifatlariga bog'liq, bo'ladi.

Yosh avlodni ijobiy harakter hislatlari ruhida tarbiyalashga jiddiy etibor bermoq lozim. Ijobiy harakter xususiyatlariga ega bo'lgan kishi o'z atrofida odamlarning, qarindoshlari va do'stlarining mehr-muhabbati va izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi. Salbiy harakter xususiyatiga ega bo'lgan shaxsdan boshqalar o'zini olib qochadi, bunday shaxs oilada ham, mehnat jamoasida ham obro'ga ega bo'lmaydi, do'stsiz, birodarsiz hayot kechiradi. Dsmak, salbiy harakter hislatlariga burkangan shaxs mazmunsiz hayot tarzini o'taydi, turmushning lazzatli onlaridan bebahra qoladi, kimsasizlik dardiga muhtalo bo'ladi. Bu esa tiriklikdagi o'liklikning ayni o'zidir.

SHuni ham aytish kerakki, katta yoshdagi odamlar ongli ravishda o'zlaridagi salbiy harakter xislatlariga qarshi kurashib, ulardan xalos bo'lishi mumkin. Buning uchun avvalo shaxs o'z ustida ishlash malakasiga ega bo'lishi, o'z hulq-atvoridagi nuqsonlarni aniq bilishi ularga qarshi kurashning pedagogik usullaridan to'g'ri foydalana olishi zarur.

Psixologik jihatdan shaxsning o'z harakter xislatlariga to'g'ri baho berishi, o'z nuqsonlarini aniq payqab, buyniga olishi juda kiyin masala xisoblanadi. SHuning uchun ham boshqalar fikriga quloq solish, tanqiddan hafa bo'lmaslik, mehnat jamoasi har qanday shaxsga xolisona baho berishni to'g'ri tushunib, o'z harakter xislatini o'zgartirish borasida ish olib borish yaxshi natija beradi.

SHaxs guruh, yoki jamoada faoliyat ko'rsatadi. Odamlar orasida yashab, mehnat qilar ekan, boshqalar hatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi ijobiy va salbiy harakter xislatlariga o'z munosabatini bildiradi, ijobiy sifatlarga xayrixohlik, salbiylariga nafrat xissini izhor etadi. SHuning uchun jamoa g'oyat katta tarbiyviy kuchdir. CHunki odamning harakteri uning faoliyati jarayonida tarkib topadi va muloqotlari hamda harakatlarida namoyon bo'ladi.

Q O B I L I YA T. SHaxsning tayyor bilim yoki ko'nikmaga ega bo'lmay turib u yoki bu narsani tez faxmlay olishi, bilimlarni tez o'zlashtirishi. xozirjavobligi, olingan bilimni keng xajmda va uzoq muddat xotirada saqlay olishi kabilarda namoyon bo'ladigan tezlik sifati qobiliyat deb aytiladi.

Ma'lumki, har bir shaxsning kamol topishi uning organizmining o'sishi, ijtimoiy shart-sharoit va ta'lim-tarbiyagagina bog'liq bo'lmay, o'sha shaxsning shaxsiy faoliligi, g'ayrati. shijoati va mustaqilligiga ham bog'liq bo'ladi. SHaxs kamolotida mexnatsevarlik hamda o'zini durust anglashning muhim ahamiyati bor. Umumiy .psixologik ta'limotga ko'ra, odamda kompensatsiya qobiliyati bor. Buning ma'nosi .shuki, shaxs ruhiyatidagi bir xossa o'rnini boshqa bir qancha xossalar to'ldiradi. Unda bo'lmagan qobiliyatlar o'rnini bosadigan boshqa qobilyatlar vujudga keladi.

Bu jarayonda ijtimoiy muhit va to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim va tarbiya alohida o'rin tutadi. Psixologik nuqtai nazardan har bir shaxs o'zidan qobiliyatlilik sifati jixatidan boshqalardan ajralib turadi. Qobiliyati jixatidan odamlar o'yinda ham, o'qishda ham, mexnatda ham bir-birlaridan keskin farq kiladilar. Qobiliyatli odam u yoki bu ishni tez, sifatli bajarsa, qobiliyatsiz odam ,xudi shu ishni sekin va sifatsiz bajaradi. Yoki faoliyat turlarining ro'yobga chiqishi qobilyatli shaxslarda serunum va samarali bo'lsa, qobilyatsiz shaxslarda buning aksi bo'ladi. Demak,

odamdagi qobiliyatlilik sifati uning ijodiyligi, mustaqilligi va tezkorligi kabi xarakterlarida o'z ifodasini topadi.

SHaxsning muhim individual sifati hisoblanuvchi qobiliyat shaxsning boshqa individual sifatlari bilan bog'liq, xolda xilma-hil bo'ladi. Buning sababi shundaki, har bir faoliyat turi shaxsdan qobiliyatlilikning ma'lum darajasini talab etadi. Ikkinchidan, shaxs faoliyatining turlariga muvofiq, tarzda nazariy, amaliy, ilmiy, ijodiy, texnikaviy, musiqiy, pedagogik, tarbiyachilik kabi qobiliyat turlari mavjud.

Bundan tashqari, umumiy va maxsus qobiliyatlar ham bor. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan kishi faoliyatning turli sohalalarida uning faolligini taminlaydi. Agar talaba umumiy qobiliyat sohibi bo'lsa, u barcha fanlarni baravar o'zlashtiradi, taassurotlarni to'g'ri va to'liq, idrok qila olishi, bilan boshqa talabalardan ajralib turadi. Maxsus qobiliyatlar shaxsga faoliyatning ma'lum sohasidagina muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Agar talaba maxsus qobiliyat sohibi bo'lsa, u ayrim fan sohaslarini durust o'zlashtirgani holda barcha fanlarni durust o'zlashtirishni uddalay olmaydi¹.

Umuman shaxsda qobiliyatlilik layoqati bo'ladi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayrim shaxslarda umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lgani holda, boshqalardan maxsus qobiliyatlar mavjud bo'ladi. SHunday qilib, umumiy va maxsus qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar o'tkir zehn, idrok, ijodkorlik, o'z ishiga mas'uliyatli yondashuvlari bilan farqlanadilar. Bularning faoliyati aloxida nazarga olinadi va baholanadi. Qobiliyatsiz shaxslarga nisbatan umumiy va maxsus (ayniqsa, umumiy) qobiliyat egalari alohida e'zozlanadilar, ularga umuman faol shaxslar sifatida qaraladi.

Talabalik yoshi shaxsda individual sifatlarning tez o'sishi bilan xarakterlanadi. SHaxs hayotining bu davrida qobiliyatlilik bilan bog'liq sifatlari ham turli hillarda namoyon bo'ladi. Bu jixatdan talabalarni quyidagi qobiliyat sohiblariga ajratish mumkin. Zshni o'tkir, bilim egallashga intiluvchi, tirishqoq talabalar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan talabalar darslarni tez o'zlashtiradi.

¹ Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006, 89-bet.

Ularga ilmiy ozuqa

berilsa, fikri o'saveradi, oqilona yo'l ko'rsatilsa, shoshilmay, toliqmay maqsad sari intilaveradi.

2. Zehni o'tkir, gapga quloq soladigan talabalar. Bu tur qobiliyat egalariga xos sifat shundaki, ular bilimlarni sekin o'zlashtiradilar, o'qituvchining doimiy nazoratiga muxtoj bo'ladilar.

3. Zehni o'tkir, bilimga intiluvchan, lekin o'zboshimchalik va o'jarlikka moyil talabalar. Bu turdagi qobiliyat egasi bo'lgan talabalar uzluksiz tarbiyaga muxtoj bo'ladilar. To'g'ri ta'lim va tarbiya berilsa, ulardan buyuk odamlar etishib chiqadi.

4. Gapga kiradigan, xamma narsani bilishga qiziqadigan, bilimlarni sekin o'zlashtiradigan va bo'shang talabalar. Bular talabalar bilan izma-iz bora oladi. Buning uchun ularga iltifot qilib, juda qattiq talablar qo'ymay, ko'nglini ko'tarib, amalga oshirayotgan ishlarini ma'qullash maqsadga muvofiqdir. SHunday qilinsa, bunday talabalar iste'dodli talabalar darajasiga ko'tariladi hotirasi keng qamrovli va maxsuldor bo'ladi.

5. Zehni past, beparvo va bo'shang talabalar. Ularni donolik, sabr-toqat bilan o'qitish va tarbiyalash mumkin. SHundagina bular ham yaxshi mutaxasis bo'lib etishadi.

6. Badjahl va g'ayri tabiiy talabalar. Ular qiyinchilik bilan tarbiyalanadilar. Ulardagi o'jarlik hislatini yo'qotib, ijobiy tomonga yo'naltirish mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi.

Yuqoridagi qobiliyat turlariga mansub talabalar bilan ham jamoaviy, ham individual tarzda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. CHunki, talabalar qobiliyati jihatidan qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning insoniy tabiati va fiziologik a'zolari ham bir xildir.

Demak, umuman odamlar o'yin, o'qish va mehnat jarayonida bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning ba'zilar bir ishni tez va sifatli ado etsalar, ikkinchilari sust va sifatsiz bajaradilar. Ba'zi shaxslar o'z faoliyatlarida ilg'or, tashabbuskor, samarali

va serunum bo'ladilar. Anna shu kabi hislatlariga asoslanib ularning qobiliyatli kishilar deb yuritiladi.

Kishining qobiliyati xilma-xil bo'lib, qiziqishlar tufayli o'z ustida ishlash natijasida paydo bo'ladi va rivoj topib boraveradi. Odam faoliyatining xarakteriga qarab qobiliyat ham turlicha bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat, pedagogik qobiliyat va h.k.

SHaxs faoliyatining biror sohasiga nisbatan bo'lgan qobiliyatlilik uning faoliyatini boshqa tomonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatning mohiyatidan kelib chiqib qobiliyat ham, turli kasb egalarida turlicha namoyon bo'ladi, ayrim shaxslar bir necha sohalarga nisbatan ham qobiliyatli bo'ladilar.

Qobiliyatning yanada yuqori va sifatli ko'rinishi tanlant yoki iste'doddir. SHaxs qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyatlar iste'dod deb yuritiladi. SHaxsdagi iste'dodlilik sifati unda qobiliyatning yuqori ko'rinishi bilim va malakalarni tez egallash, u yoki bu yumushni tez va soz ado eta olish bilan aniqlanadi.

Iste'dodlilik darajasiga erishgan shaxsda aql, idrok, xotira, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar ancha rivoj topgan, iroda sifatleri barqarorlashgan, nutq rivojlangan bo'ladi. SHuning uchun ularning kuzatuvchanligi, bilimlarni o'zlashtirishi, olingan bilimlarni amalda qo'llashi, o'z sohasi bo'yicha yangilik yaratishga moyilligi boshqalardan farq qiladi. O'z navbatida olingan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar shaxsdagi iste'dod darajasining yanada o'sishiga xizmat qiladi. Talantli shaxslar yirik hajmdagi amaliy va nazariy masalalarni hal etadilar, ilg'or harakterga ega bo'lgan yangilik va ijodiy ishlarni amalga oshiradilar.

Talantli shaxslarda sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, hissiyot, iroda kabi ruhiy holatlar taraqqiy etgan bo'ladi. Bu xoll shaxsni yanada faollashtiradi, uning talantini kengroq namoyon etadi.

Talantli shaxslar o'z kasbining ustalari bo'ladilar, ularning faoliyatlariga ibrat-namunaviylik xosdir. Talantli pedagog, talantli san'atkor, talantli olim, talantli shoir deganda, o'z faoliyati nuqtai nazaridan boshqalarga o'rnak bo'luvchi oshaxslar nazarda tutiladi. Talantli bo'lishning yagona sharti shaxsning o'z ustida

sistematik tarzda ishlashidir. Agar inson o'z ustida muntazam ishlashni davom ettirmasa, undagi talantlilik sifati susaya boradi va sunadi.

Talant o'zining geniy, genal kabi darajalariga egadir. Har tomonlama taraqqiy etgan avlodlar tajribasini ijodiy o'zlashtiradigan, uni o'z davriga tadbiq etib yangi bilim va tajriba bilan boyitadigan, mustaqil fikrlash asosida yaratuvchilik, ijodkorlik, xususiyatlariga ega bo'lgan optimistik g'oya bilan sug'orilgan, Vatan va jamiyat manfaatlarini nuqtai nazaridan ish tutadigan ilg'or dunyoqarash egasi bo'lgan o'zining ijtimoiy burchiga hamma vaqt sodiq bo'lgan shaxslar geniy shaxslardir. Geniy shaxslar garmonik rivojlangan shaxslar bo'lib, ijtimoiy hayot voqealarini va ilm-fanni chuqur o'zlashtirgan bo'ladilar. Ular fan sohalariga, hayot voqealariga ijodiy yondoshib, uni yanada boyitadilar, voqealar rivoji, kelajagani oldindan ko'ra biladilar. Geniy shaxslar o'ta mehnatsevar va kuchli irodali bo'ladilar. Ular uchun xalq, manfaati, Vatan kelajaga har narsadan ustun turadi.

Geniy shaxslarning ijtimoiy hayotni o'rganish sohasida to'plagan tajriba va bilimlari insoniyat tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keladi. Ular o'z xalqlari va vatanlari uchun baxtli farovon hayotni xadiya etish bilan birga bu hayotni kelajagi, istiqboli va taraqqiyot qonunlarini ham kashf etadilar.

Geniylikning yana bir muhim tomoni shundaki, bunday shaxslar tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida kelguvsi avlod uchun bitmas-tuganmas nazariyalar yaratadilar. Bu nazariyalar kelgusi avlod qo'lida g'oyaviy qurol bo'lib hizmat qiladi.

SHuni ham ta'kidlash lozimki, geniylik darajasiga ko'tarilgan shaxs o'z faoliyatida jamiyat uchun katta yutuqlarning qo'lga kiritilishiga sabab bo'ladi va bu xol o'sha shaxsning shaxsiyatini yanada, ulug'lab, nomini abadiylashtiradi.

Imom Buxoriy, Maxdumi A'zam yoki Alisher Navoiy. yoki L.S.Pushkin, I.P.Pavlovning geniyliги fan sohasida, Michurinning geniyliги tabiatni o'zlashtirishda, K.E.Sialkovskiyning geniyliги planetalararo kosmik uchish masalalarida namoyon bo'ladi. YUksak talant egasi bo'lgan bu daholarning fan sohasida yaratgan yangiliklari keyingi avlodlar uchun abadiy bilim manbaidir.

O'рта Osiyoning mashhur mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Al-Xorazmiy kabi mashhur olimlar fan olamida geniylikning yuksak chuqqisiga ko'tarildilar

SHunday qilib, shaxsning geniy yoki geniylik sifati uzoq muddat moboynda o'z ustida samarali mehnat qilishning, o'qib-o'rganishning natijasidir.

Mashhur rus yozuvchisi A.M.Gorkiy haqli ravishda ta'killaganidek, shaxsning individual sifatlari mehnat jarayonida yuzaga keladi va rivoj topadi.

SHaxsning qobiliyati to'g'ra layoqat asosida muhitga, ta'lim va tarbiyaga bog'lik holda o'sib boradi. Har bir odam bolasi «mudrab yotgan» layoqat (tug'ma imkoniyat) bilan dunyoga keladi. Undan so'ng u mansub bo'lgan ijtimoiy muhit bu layoqatni yuzaga chiqaradi. Layoqat ayniqsa, yoshlik chog'larida jadal rivojlanadi. Masalan, Seryoja Xalyapin (Moskva shahri) 14 yoshida o'рта maktabni tamomlab, D.I.Mendeleev nomli Moskva ximiya-texnologiya institutining talabasi bo'ldi. Amerikalik Mayk Grost 11 yoshida Michigan universitetiga qabul kilindp. Angliyalik Maybelle 4 yoshida birinchi sinf o'quvchisn bo'ldi. Erevanlik David Arutyunyan 12 yoshida politexnika institutining kibernetika fakultetiga qabul qilindi. Olti yoshli qirg'iz yigiti Asilbek Siydanov mashhur epos-"Manas"ni yoddan aytib, respublika ko'rigida birinchi darajali diplom billan tag'dirlangan. Meksikalik Antonio Xaures esa, bir vaqtning o'zida ispan tilida gaplashib turib, ingliz tilidagi tekstni bemalol yoza oladi.

Bunday misollarni kattalar hayotidan ham keltirish mumkin. CHunonchi, Toshmuhammad Sarimsoqov 30 yoshga to'lmay akademik bo'ldi. Nikolay Nazarov 14 yoshida ToshDUni bitirdi. SHavkat Olimov va Raxim Xaitovlar 25 yoshida professor bo'lishdi. Ilxom Mamedov 20 yoshida fan nomzodi bo'ldi va x.k. Bu kabi o'ta qobiliyatli bo'lishning poydevori oilaviy muhit hisoblanadi. Oila muhiti ularni qiziqtirgan narsa ustida jiddiy bosh qotirishga undashi tufayli doimo aqliy ozuqaga tashnalik yuzaga keltirgan. Natijada bolalar uchun murakkab hisoblangan aqliy mushohada ular uchun oddiy va oson bo'lib qolgan.

Hozirgi vaqtda ayniqsa, qobiliyatli yoshlarga ehtiyoj kuchaymokda. Mustaqil respublikamizda iste'dod egalarining ko'payishi uchun zarur ijtimoiy muhit

muxayyo etilmoqda layoqatli yoshlar bilan mahsus shug‘lanishga alohida qaratilmoqda.¹

Buning boisi bor, albatta istedodli yoshlar turli mazmundagi taassurotlarni miyada qayta ishlash, umumlashtirish, saralash va xulosa chiqarish tezligi va rostligi bilan ajralib turadilar, ularda fikrlash jarayoni va xissiy idrok etish taraqqiy etgan bo‘ladi, yangiliklarni osonlik bilan o‘zlashtiradilar.

Qobiliyatlik ite‘dodlik va talant kabi sifatlar shaxsda faqat mehnat, tinimsiz intilish tufayli vujudga keladi va rivoj, ravnaq, topadi. SHuni ham unutmaslik kerakki, agar ijtimoiy muhit noqulay bo‘lsa, odam o‘z ustida ishlamasa, undagi qobiliyat va ite‘dod alomatlari yo‘qoladi. Lekin qobiliyatning o‘shishi uchun faqat ijtimoiy muhit ta‘sirining o‘zida kifoya qilmaydi. Bunda yana bir muhim vosita ta‘lim va tarbiyadir. Qobiliyat ta‘lim jarayonida, bilimlarni o‘zlashtirish va ijodiy qo‘llanishida tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishda, faoliyat jarayonida kamol topadi.

Har bir shaxsning o‘zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, talim va tarbiya uning layoqatini ite‘dod hamda qobiliyatini o‘stirmog‘i mumkin. Agar shaxs o‘z kasbini sevib, unga kuchli mehr qo‘ysa, uning qobiliyati tez o‘sadi. Kishining qobiliyati uning qiziqishlari bilan ham mustahkam bog‘liq bo‘lib, klzividshlar ta‘sirida qobiliyat o‘sadi va u boshqa individual sifatlar mazmuniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

¹E.G‘oziev, K.Daminov. Bolalarpsixologiyasi. Toshkent, 1992, 17-bet

III.BOB.OLINGAN NATIJALARNI PSIXOLOGIK TAXLILI VA UMUMLASHTIRISH.

3.1.Bolalarni individual xususiyatlarini aniqlash metodlari.

MIJIZINGIZNI BILASIZMI?

Mijoz har bir insonning ruhiy holati va fe'l-atvorida nomoyon bo'luvchi o'ziga xos xususiyatdir. Mijoz ichki holatlarining davomiyligi va qizg'inligiga ta'sir qiladi hamda insonning tashqi hatti-harakatlari: imo-ishorasi, mimikasi, faolligi, tez yoki sokin harakatlanishini va boshqa jarayonlarda seziladi. O'z mijozini haqida bilishga har bir insonning qiziqishi tabiiy. Ushbu test qiziqishingizga javob topishingizga ko'mak beradi.

Quydagi har to'rt gapdan bittasini o'zingizga mos kelganlarini belgilab chiqing.

1. a) betoqat, behalovat;
b) quvnoq va xushchaqchaq;
v) sokin va sovuqqon;
g) uyatchang va tortinchoq;
2. a) saboatsiz va jahildor;
b) serharakat va ishchan;
v) qat'iyatli va sinchkov;
g) yangi shart-sharoit izlovchi.
3. a) chidamsiz;
b) boshlagan ishingizni oxiriga etkazmaysiz;
v) ehiyotkor va mulohazali;
g) yangi tanishlar bilan muloqotga kirishishingiz qiyin;
4. a) keskin va betgachopar;
b) qadringizni yaxsh bilasiz
v) kutishga qodir;
g) o'z kuchingizga ishonmaysiz;
5. a) jur'atli va tashabbuskor;
b) yangiliklarni tez ilg'ab olishga layoqatli;

- v) kamgap, ortiqcha gap sotishni yoqtirmaysiz;
 - g) yolg'izlikda o'zingizni engil his qilasiz;
6. a) qaysar;
- b)qiziqish va ishtiyoqlaringiz o'zgaruvchan;
 - v) tanafuslar bilan sokin va bir tekis gapirasiz;
 - g)ko'pincha omadsizlikdan tushkun va parihonxotir yurasiz;
7. a) baxslarda hazirjanob;
- b)tez havotirga tushuvchan;
 - v) o'z jahlingizni bosa olasiz;
 - g) tez o'zingizni yo'qotib qo'yasiz;
8. a) tavakkalchi;
- b) yangi shart- sharoitga tez moslashasiz;
 - v) boshlagan ishingizni oxiriga etkazasiz;
 - g) tez charchaysiz;
9. a) buzuq- yuluq ishlaysiz;
- b) har qanday yangi ishni ishtiyoq bilan qabul qilasiz;
 - v) kuchingizni bekorga sarflamaysiz;
 - g) past ovozda, sokin suhbatlashasiz;
10. a) kek saqlamaydigan va hadiksiraydigansiz;
- b) sizni qiziqitirmay qo'ygan ishdan tez havsalngiz pit bo'ladi;
 - v) ish tartibingizni qat'iy rejalar asosida olib borasiz;
 - g)suhbatdoshingizning fe'l- atvoriga beixtiyor moslashasiz;
11. a) tez berilib poyma- poy so'zlaysiz;
- b) bir ishdan boshqasiga tez ko'chasiz;
 - v) ishtiyoqlaringizdan oson tiyilasiz;
 - g) tez yig'laysiz;
12. a) bir xilda turmaydigan va tez qiziquvchansiz;
- b) diqqat talab qiladigan ishlarini bajarishga qiylanasiz;
 - v) maqtov va tanbehlarga unchalik e'tibor bermaysiz;
 - g) o'zingizga ham o'zgalarga ham katta talab qoyasiz;

13. a) ba'zan tajavvuskor jangariga aylanib qolasiz;
b) kirishuvchan va ko'ngilchansiz hatto harakatlaringizni cheklamaysiz;
v) tagida zaharxondalik yotgan gaplarini ham mulohim iltifotli ifodalaysiz;
g) shubha va gumonsirashga moyilsiz;
14. a) etishmovchilikka betoqasiz;
b) chidamli va ishga qobiliyatlisiz;
v) faqat o'z qiziqishlaringiz bilan ish bajarasiz;
g) dardchilsiz va ko'nglingiz nozik;
15. a) ma'nodor imo- ishoralar bilan gapirasiz;
b) xatti- harakatlar va imo- ishoralar yordamida ochiq baland ovozga gapirasiz;
v) ishga sekin kirishasiz va bir ishdan ikkinchisiga ham sekin ko'chasiz;
g) achchigingiz burningizni ustida
16. a) tez harakatga tushishni va birdaniga hal qilishni istaysiz;
b) kutilmagan va qiyin sharoitlarga hamisha tayyor turasiz;
v) hammaga birdan muomilada bo'lasiz;
g) ko'nglingizni ochmaysiz, kirishimli emassiz;
17. a) yangiliklarni bajonidil qabul qilasiz;
b) kaffiyatingiz har doim tetik;
v) hamma narsada tartibni xush ko'rasiz;
g) tortinchoq va sustkashsiz;
18. a) keskin va qizg'in harakatlar qilasiz;
b) tezda o'zingizni bosib aqlingizni bosib olasiz;
v) notanish haraktga qiyinchilik bilan ko'nikasiz;
g) itoatkor va ko'ngilchansiz;
19. a) bir qarorga kelishingiz qiyin;
b) muvoffaqiyatga erishish uchun bor kuchingiz bilan tirishasiz;
v) kamharakat, so'lg'insiz;
g) odamlardan hamdardlik kutasiz;
20. a) kayfiyatingiz birdan o'zgaradi;
b) ba'zan rad etishga moyilsiz;

v) o‘zingizni tuta bilsiz;

g) mehr yoki e‘tiborsizlikni chuqur qabul qilasiz;

Necha marta “a” javobini, necha marta “b”, “v”, “g” javoblarini tanlaganingizni hisoblab chiqing. Ulardan qay birini eng ko‘p belgilangan bo‘lsangiz, quyidagi royxatga qarab qaysi mijoz vakili ekanligingizni bilib oling. To‘rtta javoblar varianti to‘rt xil mijozdagi odamlar fe‘l- atvorini o‘z ichiga oladi:

“a”- xolerik (qiziqqon);

“b”- sangvinik (xushchqchaq);

“v”- flegmatik (og‘ir);

“g”- melanxolik (g‘amgin).

Biz bolalar temperament tiplarini aniqlash uchun ularni kuzatdik, ular bilan suhbatlar olib bordik. Ularning o‘yinga bo‘lgan munosabatini, kattalar bilan muloqot jarayonlarini, voqea xodisalarga reaksiyalarini. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki temperament bolaning fundamental tabiiy xarakteristikasi hisoblanib, asab tizimi xususiyatlarining tug‘maligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham u tashqi muhit va tarbiya ta‘sirida unchalik o‘zgarmasligi bilan xarakterlanib turadi. temperament bolaning fundamental tabiiy xarakteristikasi hisoblanib, asab tizimi xususiyatlarining tug‘maligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham u tashqi muhit va tarbiya ta‘sirida unchalik o‘zgarmasligi bilan xarakterlanib turadi.

-Jahldor, betoqat, serzarda harakatcha bolalar –xolerik hisoblanadilar.

-Sangvinik bola muloqotga oson kirishuvchan bo‘lib, muloqot doirasi ham juda keng bo‘ladi.

-Flegmatik bola o‘yin va mashg‘ulotlarda an‘ana va qoidalarga amal qilishni ma‘qul koradi.

- Kichkina melanxoliklar qo‘rqoqdek tuyiladilar. Ular ko‘pchilik o‘ynayotgan o‘yinlarga birdaniga qo‘shilib keta olmaydilar,

Xulosa

Xulosa qilib aytganda har bir bola o`zicha individual, bola shaxsi va o`ziga xosligi temperament, xarakter, qobiliyatlarida ko`rinadi. Ko`pchilik ota-onalar o`z farzandlarining individual – psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishmaydi. Bolaga nisbatan olib boriladigan tarbiyaviy va pedagogik ta`sir ko`rsatish, asosan shu ikki omilga yonaltirilgan bo`ladi. Kuzatishlarimiz shuni ko`rsatdiki kattalar o`sib kelayotgan avlodni yaxshi tarbiyalashni hojlasalar farzandlarini temperamentidan kelib chiqib ta`sir ko`rsatishlari zarur.

Kattalarning xolerik bola bilan bo`ladigan muloqoti anchagina sabr-toqat va vazminlikni, o`zini tuta bilishni talab qiladi. Chunki bunday bolalar ko`pincha to`palonchi, tinib tinchimas bo`ladilar. Ular bilan muloqotda eng muximi – jahl chiqqan paytda hotirjamlik va sovuqqonlik bilan ish tutish lozim. Xolerikning faolligi va kuchini foydali masalallarga yo`naltirish lozim.

Temperament tiplarining mutloqo ijobiy yoki salbiysi bo`lmaydi. Ulardan birini o`ziga xos afzallik va kamchilik jihatlari mavjud.

Flegmatik bolaga uning sabr-toqatliligi va quntliligi yordam beradi. Xolerik bola o`quv materiallarini tez o`zlashtirib oladi. Sangvinik temperamentiga mansub bo`lgan bola o`qishni oson egallaydi, lekin unda ma`lum tizim bo`lmaydi.

Noto`g`ri tarbiyalash natijasida bola xatti-harakatlarida pala- partish ba`zi salbiy jihatlari tez yuzaga kelishi mumkin

Tavsiyalar

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya qilamiz. Ota- onalar farzandlaridan o`zi xohlagan insonni shakllantirishni xoxlashadi. Dono xalqimiz “ona- kulol” deb bekorga aytishmagan. Ammo insonga tabiatan berilgan shunday individual xususiyatlar borki ularni be`etibor qo`yish mumkin emas.

Bir xil xodisaga turli odam turlicha reaksiya bildiradi. Bunga qarab ularni yaxshi yoki yomon bolalarga ajratib bo`lmaydi. Bolalar tarbiyasiga befarq bo`lmagan ota-ona va tarbiyachilar ularning farqini ta`sir etish yo`llarini qidirib ko`rish kerak. Buning uchun har-bir kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda psixologiya fanlarini o`qitish ularga nafaqat bola tarbiyasida , balki boshqalar bilan munosabat o`rnatishda qo`l keladi. Bundan tashqari maktabgacha ta`lim muassasalaridagi psixologlar tarbiyachilar bilan birga yosh ota-onalarga ham tushuntirish ishlari olib borishlari lozim.

Ko`pchilik ota-onalar o`zlari yetisholmagan orzularini bolalarida ko`rishni xoxlaydi. Bir ona farzandini qobiliyatiga ham e`tabor bermay musiqa maktabiga olib borib qo`ydi. Musiqa asbobini chalish bolaga katta qiyinchilik tug`dirardi. Bir necha yilgi foydasiz urinishlaridan so`ng bolani musiqa chalishga majburlashmay qo`yishdi. Bolaning temperamenti, xarakteri qobiliyatiga qarab yo`naltirmaslik , jamiyatga o`rta miyona kadrlar yetishib ciqishiga sabab bo`ladi.

Mustaqil O`zbekistonimizga malakali yetuk kadrlar yyetishtirish uchun albatta, ularning individual hususiyatlariga e`tibor berish shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiy yo'li. Toshkent, 1992 yil
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent, 2000 yil.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T., 1996 yil
4. Karimov.I.A. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., SHarq. 1997.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” – Ma'naviyat.- T., 2008 yil
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'limi to'g'risida»gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. «Ma'rifat» gazetasi. T., 1997 yil 1 oktyabr
7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari. T., O'z PFITI, Tuzuvchilar Rasulova.M, Abduraxmonova.X 2000 y.
8. «Uchinchi mingyillikning bolasi». tayanch dasturi va o'quv qo'llanmasi. Tuzuvchilar: M.Rasuleva, S.Mirdjalilova va boshqalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2000 y.
9. «Uchinchi mingyillikning bolasi». tayanch dasturi va o'quv qo'llanmasi uchun badiiy tuplam. Tuzuvchilar: D.Koraboeva, Z.Ibroximova va boshqalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2002 y.
10. «Bolajon» tayanch dasturi, Tuzuvchilar: S.Mirdjalilova, M.Rasuleva va boshqalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2010 y.
11. Voxidov M.. «Bolalar psixologiyasi» Toshkent. 1992 y.
12. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O'qituvchi”,1994
13. Davletshin M.G. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004
14. G'aybullaeva M., D.Gaybullaeva, Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi, T., Ilm-ziyo nashriyoti, 2006 yil.
15. Ivanov P.I., Zuffarova M.E. Umumiy psixologiya., T., 2008 yil

16. Ibragimov X., U.Yuldoshev Pedagogik psixologiya, Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T., 2009 yil.
17. Kalyushen G., M.Deyugina «Yo‘rgakdan maktabgacha» 1996 y.
18. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1996
19. Leventuev P., A.Askarxujaev, B.CHudnovskiy, M.Voxidov «Bolalar psixologiyasi ocherklari».
20. Loginova V.I., P.G.Samorukoalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» . «Tarbiyachi» T., 1991 y.
21. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o‘qitish metodikasi. T., 2007 y.
22. Nishonova Z.T. «Bolalar psixologiyasi» o`quv qo`llanma. – T., 2006 y.
23. Norbosheva M. Bolalar Psixologiyasi. T., 2002 yil
24. Raximova N."Kuyla, oftobim". Toshkent 2006 yil
25. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.
26. YUsupova P. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» «Tarbiyachi» T- 1993y.
27. "O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent - 2009 yil.
28. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
29. G‘aybullaeva M., D.Gaybullaeva, Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi, T., Ilm-ziyo nashriyoti, 2006 yil.
30. G‘aybullaeva M., "Farzandlarimizni allalab. erkalab o‘stiramiz". T., 2006 yil
31. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
32. www.Ziyo.net